

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

HASANOVA MALIKA NABIBULLAYEVNA

**OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA LEKSIKANING SHAKL VA MA’NO
MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI**

5A120102-Lingvistika (o‘zbek tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

**Ilmiy rahbar f.f.n
O‘razbayev A**

Urganch – 2016

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Biz yoshlar, xususan, mutaxassislar uchun muhtaram Prezidentimizning “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”¹ – degan so‘zlari g‘oyat muhim ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy dastur vazifasini bajarmoqda.

Tilshunosligimizda Ogahiy asarlari tili tadqiqi hali muammo. Bu jarayonda tizimli va monografik tadqiqotlar sanoqli. Tarixiy asar tili leksikasining shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlariday amaliy va nazariy ahamiyatli mavzu masalaning dolzarbligi hamda zaruratini asoslab beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muhammad Rizo Ogahiy shaxsi va ijodiga ilk munosabatlarni uning o‘z zamondoshlari asarlarida uchratamiz². Ogahiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish shoir tavalludining 150 yilligi munosabati bilan V.Abdullaev, A.Qayumov, V.Zohidov, G‘.Karimov, S.Dolimov kabi zabardast o‘zbek olimlari boshlab berdilar. Albatta, bu jarayonda rus sharqshunoslarining ham o‘ziga xos hissalari bor.

O‘tgan asrning 60-yillarida “Ta’viz ul-oshiqin” devonining nashr qilinishini ogahiyshunoslikda jiddiy siljish sifatida baholash mumkin. Ogahiyshunoslik rivojida R.Majidiyning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. R.Majidiy Ogahiy lirikasini ilmiy tahlil qilar ekan, Xorazm adabiy muhiti va undagi adabiy ta’sir masalalariga ham alohida e’tibor qaratdi. Ogahiyshunoslikning bugungi darajadagi rivojida S.Dolimov olib borgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati katta. Ogahiy asarlarining qo‘lyozmalarini o‘rganishda F.G‘anixo‘jayev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni alohida e’tirof etish kerak. Shu bilan birga F.G‘anixo‘jayev Ogahiy asarlarini rus tiliga tarjima qilishda ham faollik ko‘rsatdi. Olim 1998-yilda “Ogahiyning “Ta’viz-ul-oshiqin” devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini adabiy manbashunoslik va matnshunoslik

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 87.

² Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий // Мерос туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.175-265; Девони Мавлоно Комил маа тавориhi шоҳони Хоразм. Лит. Г.Яковлева. – Ташкент, 1327 хиж. – Б.26.

yoʻnalishida himoya qildi. Bundan tashqari F.Gʻanixoʻjayev oʻzining “Ogahiy Xorazmiyning forsiy sheʼrlariga bir nazar” maqolasi bilan Ogahiyning forsiy merosiga jahon eronshunoslari eʼtiborini tortishiga ham hissa qoʻshdi. Ogahiyning hayoti va ijodiga oid monografik tadqiqotlar Q.Sultonova, A.Primqulov, M.Matyoqubova, G.Xollieva, T.Matyoqubova tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, Ogahiy forsiy merosining bir qismi A.Ahmedov tomonidan oʻrganilgan boʻlsa, ularning aksari shoir M.Abdulhakim tomonidan badiiy tarjima qilindi. Ogahiy asarlarining Gʻ.Karimov, S.Dolimov, Xurshid va keyinchalik A.Abdugʻafurov rahbarligida nashr qilinishi madaniy hayotimizda katta voqea boʻldi. Ogahiy tavalludining 190 yilligi munosabati bilan “Ogahiy abadiyati” nomli maqola va esselar toʻplamining hamda “Atoqli shoir, tarixnavis va tarjimon” kitobining nashr qilinishi ogahiyshunoslikda muhim voqealardan biri boʻldi.

Oʻzbek tarjimashunosligida Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga bogʻliq monografik tadqiqotlar N.Komilov, V.Rahmonovlar tomonidan amalga oshirilgan. Ogahiyning tarixiy asarlaridan V.V.Bartold, P.P.Ivanov, Y.Gʻ.Gʻulomov, M.Yoʻldoshevlar oʻz tadqiqotlarida unumli foydalanganlar. Q.Munirov XIX asr va XX asr boshlaridagi Xiva xonligidagi tarixnavislik masalasini tadqiq qilish bilan birga Ogahiyning hayoti va ijodiga oid maxsus risola ham yozgan. Ogahiy ijodining M.Safarboyev tomonidan falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilinishi buyuk mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlarini oʻrganishda muhim bosqich boʻldi.

Lekin Ogahiy asarlarini lingvistik jihatdan oʻrganish hanuzgacha dolzarb muammoligicha turibdi. Ogahiy asarlari til xususiyatlariga bagʻishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan eʼlon qilingan³. Ushbu maqolada olim Ogahiyning omonim va sinonim soʻzlardan foydalanishdagi poetik mahoratini ochib beradi. U.Tursunov va N.Rajabovlar taʼkidlaganidek, “ushbu ish sof amaliy xarakterga ega”⁴. Z.Doʻsimovning “Ogahiyning “Zubdatut-tavorix” asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida” maqolasida esa mazkur asarning lisoniy oʻziga

³ Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – № 51.

⁴ Турсунов У., Раджабов Н. Из истории омонимов в узбекском литературном языке // Тюркская лексика и лексикография. – М.: Наука, 1971. – С. 45.

xosliklari ko‘rsatib berilgan⁵. Olim “Zubdat ut-tavorix”, umuman, Ogahiyning barcha tarixiy asarlariga xos bo‘lgan leksik va sintaktik xususiyatlar haqida mulohaza yuritir ekan, jumladan, ularda forsiy izofa va izofiy zanjirning keng qo‘llanganligi, murakkab sintaktik qurilmalarda fors tili sintaktik qurilishining ta’siri katta ekanligini misollar orqali ko‘rsatib beradi. Bu fikrlarga qo‘shilgan holda, X.Nazarovanning XV asr oxiri XVI asr boshlari nasriy asarlari tili sintaksisi borasida bildirgan ko‘pgina fikrlarini⁶ Ogahiy tarixiy asarlari sintaksisiga ham tatbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz. XVII – XIX asrlar eski o‘zbek tili morfologik xususiyatlarini tekshirgan A.Matg‘oziyev ko‘plab ob’ektlar qatori Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol” kabi asarlarini mavjud qo‘lyozmalaridan foydalangan holda tahlilga tortgan⁷. H.Dadaboyev o‘zbek tili tarixiy harbiy terminlarini tadqiqi asnosida Ogahiy tarixiy asarlariga ko‘plab murojaat qilgan va *tatovul*, *qaroqchilamoq*, *chapovulchilamoq*, *nikomish*, *arg‘ishchi* kabi so‘zlarning faqat Ogahiy tarixiy asarlarida uchrashini ta’kidlaydi⁸. Olimning “Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida” nomli maqolasida bayon qilingan nazariy fikr va amaliy takliflar shoir, muarrix va tarjimon ijodkor tili leksikasini o‘rganishda muhimdir. Jumladan, olim Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy til va eski turkiy til davridan faol qo‘llanib kelayotgan asl turkiycha istilohlar o‘z ifodasini topgani, bu so‘z-terminlar birlamchi ma’nosini deyarli aynan saqlab qolishga erishgani, ayni paytda VII–XIV asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha istilohlarning ma’lum qismi Ogahiy davri o‘zbek adabiy tili so‘z boyligidan chiqib ketgani, buning sababi esa ko‘p sonli o‘zlashmalar va yangidan yasalgan leksik

⁵ Дўсимов З. Огахийнинг “Зубдатут-таворих” асарининг лексик-грамматик хусусиятлари хақида // Огахий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

⁶ Назарова Х. Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка конца XV – начало XVI в. – Ташкент: Фан, 1979. –160 с.

⁷ Матгазиев А. Исследование по морфологии староузбекского языка (конец XVII – до семидесятых годов XIX в.): Автореф. дисс ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1979. – 41 с.

⁸ Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.; Огахий тили билимдони // Маърифат фидойиси. (Субутой Долимов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан) – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.181-183.

birliklarning faollashuvi ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi⁹. Ogahiyning tarixiy asarlari nashriga ilova lug'at tuzgan N.Norqulov xizmatlarini ham shoir, muarrix va tarjimon ijodkor asarlari tilida ijtimoiy-siyosiy leksikani o'rganishga qo'shilgan o'ziga xos hissa sifatida baholash mumkin¹⁰. Unda Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan 400 ga yaqin so'z izohlangan. Yaqinda shoir tavalludining 200 yilligi arafasida Ogahiyning so'nggi asari "Shohid ul-iqbol" nashrdan chiqdi¹¹, keyinchalik "Firdavsul iqbol" (ikkita nashr) amalga oshirildi. Asarga ilova qilingan lug'atda 500 dan ortiq so'zning izohi berilgan. Keyingi yillarda Ogahiy asarlari tilini monografik planda tadqiq qilish boshlandi. Bu esa ogahiyshunoslikning muhim bir yo'nalishi rivojiga yo'l ochib beradi.

Ogahiy tilini leksikologiyadan boshqa sathlar doirasida ham monografik o'rganish bugungi kunda tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida Ogahiy asarlari tadqiqiga doir ishlar salmog'i uncha katta emas. Bular S.Dolimov¹², Z.Do'simov¹³, H.Dadaboyev¹⁴, R.Yo'ldoshev¹⁵, Z.Hamidov¹⁶, A.O'razboyev¹⁷ ishlarida kuzatiladi. Ogahiyning til va nutq odobiga oid qarashlarining ayrim qirralari shoirning forsiy merosi yuzasidan tadqiqot olib borgan I.Ismoilov ishlarida ham o'z aksini topgan¹⁸.

Muhammad Rizo Ogahiy asarlari tilini tizimli tadqiq qilish bugunning talabiga aylandi. Bu borada, eng avvalo, Ogahiy asarlarining mukammal nashrini

⁹ Дадабоев Х. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) – №3. – Тошкент, 2009. – Б. 21-24.

¹⁰ Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б.202-210.

¹¹ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 335 б.

¹² Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – №51.

¹³ Дўсимов З. Огаҳийнинг "Зубдатут-таворих" асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огаҳий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

¹⁴ Дадабоев Х. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. – Б. 21-24.

¹⁵ Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида баҳор, Наврўз мавзуси // Филологическое исследования. 8-том. – Ургенч, 2004; Огаҳий ижодида мироблик билан боғлиқ сўзлар // Филологическое исследования. – Ургенч, 2004; Огаҳий поэзиясида бирла кўмакчисининг қўлланилиши // Огаҳий олами. 1-том, – Ургенч, 2004; Огаҳий поэзиясида сингармонизм // Филологик тадқиқотлар. – Ургенч, 2004 ва ҳоказо.

¹⁶ Ҳамидов З. Огаҳий шеърининг лексикасининг айрим хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. №4. 2009.

¹⁷ Ўрабоев А. Огаҳийнинг "Риёз уд-давла" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанл.номз. дисс. автореф. –Тошкент, 2009. – 26 б.; Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013.

¹⁸ Исмоилов И. Огаҳийнинг форсий мероси: Филол. фанл.номз. дисс. автореф. –Самарқанд, 2010. – 26 б.

amalga oshirish bilan bir qatorda Ogahiy asarlari lugʻatini tuzish zarur. Ushbu lugʻatni dastlab Alisher Navoiy asarlari lugʻatining 1972-yilgi nashri darajasi va andozasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu borada Z.Doʻsimov tomonidan taklif qilingan ilmiy loyihani qoʻllab-quvvatlash, amalga oshirilgan va bajarilayotgan tadqiqot natijalarini bahamjihatlik bilan umumlatirish zarur, deb hisoblaymiz. Bu katta koʻlamli ish Muhammad Rizo Ogahiy asarlari tilini barcha sathlardagi tadqiq uchun keng yoʻl ochib berishi shubhasiz.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya mavzusi Urganch davlat universiteti oʻzbek tilshunosligi kafedrasida oʻrganilayotgan “Oʻzbek tilining shakllanishida Xorazm shevalarining oʻrni” mavzuidagi istiqbolli rejasi tarkibiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari tili leksikasini shakl va maʼno munosabatiga koʻra tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi soʻzlarni shakl va maʼno munosabatiga koʻra umumiy tavsifini berish;
- Ogahiy tarixiy asarlaridagi omonim soʻzlarni aniqlash va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratish;
- Ogahiy tarixiy asarlaridagi sinonim soʻzlarni aniqlash va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratish hamda mavzuiy guruhlariga boʻlish;
- Ogahiy tarixiy asarlaridagi antonim soʻzlarni aniqlash va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratish, ularni guruhlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ishning tadqiqot obyekti sifatida Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlarining qoʻlyozma nusxalari, “Firdavs ul-iqbol”ning Y.Bregel tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri tanlandi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot doirasida murakkab masalalar yuzasidan bildirilgan fikrlarda etakchi oʻzbek tilshunoslarining muhim nazariy konsepsiyalariga tayanildi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi soʻzlarni shakl va maʼno munosabatiga koʻra umumiy tavsifi berildi;

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi omonim soʻzlarni aniqlandi va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratildi;

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi sinonim soʻzlarni aniqlash va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratildi hamda mavzuiy guruhlariga boʻlindi;

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi antonim soʻzlarni aniqlash va zarur oʻrinlarda ularning lingvoestetik jihatlariga eʼtibor qaratildi, ularning guruhlanishi amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot oʻzbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi shakllanishini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarida til tarixi, oʻzbek mumtoz adabiyoti predmetlarini oʻqishda qoʻl keladi.

Ishning sinovdan oʻtishi. Tadqiqotning ilmiy natijalaridan oliy oʻquv yurtlari filologiya fakulteti filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) bakalavriat yoʻnalishi boʻyicha taʼlim oluvchilarga “Til tarixi” “Oʻzbek tilshunosligi tarixi”, “Umumiy tilshunoslik”, shuningdek, tanlanma fanlar mashgʻulotlarida foydalanish mumkin. Urganch davlat universiteti “Oʻzbek tilshunosligi” kafedrasida qoshidagi ilmiy-nazariy seminar, majlislarida (2014-2016 yillar), yosh olimlar konferensiyalarida maʼruzalar qilingan.

Natijalarning eʼlon qilinganligi. Tadqiqot natijalari boʻyicha 2014-2016 yillarda Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti professor-oʻqituvchilari ilmiy-nazariy anjumanlarida maʼruzalar oʻqilgan. Ishning asosiy mazmuni respublika, ilmiy jurnallarida va ilmiy toʻplamlarida eʼlon qilingan maqolalarda oliy oʻquv yurtlari professor- oʻqituvchilarining ilmiy-nazariy

anjumanlari materiallarida o'z aksini topgan. Ish yuzasidan 3 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 79 sahifani tashkil etadi.

I BOB. OGAHİY TARIXIY ASARLARI LEKSIKASIDA OMONIMLAR VA ULARNING TURLARI

1.2. Ogahiy asarlari leksikasida omonimlar xususida umumiy tavsif.

Eski oʻzbek tili omonimlarga boy tildir. Ogahiy tili leksik fondining boyligi, eski oʻzbek tilining xususiyatlari kabi omillar bois adib tilida omonimlarni koʻplab uchratamiz.

Sh.Rahmatullayev taʼkidlaganidek, “omonimlar, avvalo, bir til doirasida belgilanadi”. Shuning uchun omonimlarni izohlashda oʻrganilayotgan asar doirasidan kelib chiqib, Ogahiyning butun leksikasini hisobga oldik. “Ikkinchidan, omonimiya til taraqqiyotining muayyan bosqichi doirasida belgilanadi”. Ana shu sababli ham biz bu oʻrinda eski oʻzbek tilida, xususan, Ogahiy leksikasida mavjud omonimlargagina eʼtibor beramiz. Shu oʻrinda omonimlarning tilda paydo boʻlishi, ularning oʻzbek tilidagi turlari haqida qisqacha toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiqdir.

Omonimlarning tilda paydo boʻlish yoʻllari ham turli-tuman. Hozirgi oʻzbek adabiy tili nuqtayi nazaridan omonimlarning yuzaga kelish sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Koʻp maʼnoli soʻzlar oʻrtasidagi mantiqiy jihatdan bogʻliqlik boʻlgan holda, “zanjir”ning uzilishi natijasida. Bunday soʻzlar xususida etimologiyaga alohida eʼtibor bergan holda oʻzaro qiyoslash hamda mantiq asosida bir hukmni chiqarish mumkin. Masalan, *shayton* (iblis) va *shayton* (sath tekisligini aniqlash uchun ishlatiladigan ish quroli) soʻzlarini oʻzaro qiyoslab koʻramiz. Maʼlumki, diniy taʼlimotda shayton ilmi, har narsaga aqli etadigan, farishtalarga dars oʻqitgan maxluq sifatida taʼriflanadi. U koʻz ilgʻashi qiyin boʻlgan narsalarni ilgʻaydi, koʻp odamlar (paygʻambarlar, valiyar kabilardan tashqari) bilmagan narsalarni ham biladi. Shayton quroli ham tekislikni aniq ilgʻashi hisobga olinib shunday nomlangani ehtimolga yaqin. *Shaytonning* quv, uddaburon maʼnosi ham birinchi maʼno asosida yuzaga kelgan. Demak, bu

omonimlar, tabiiyki, etimologik jihatdan bir tilga (masalan, *shayton* 1, 2, 3 ham arabcha) mansub boʻladi.

“Har bir tilda, jumladan, oʻzbek tilida koʻpchilik soʻzlar bir necha maʼnoni bildirib keladi”. Shunga koʻra, tildagi soʻzlar monosemantik (bir maʼnoli) va polisemantik (koʻp maʼnoli) boʻladi.

Ogahiy tiliga oʻzlashgan soʻzlar orasida ham koʻp maʼnoli soʻzlardan hosil boʻlgan soʻzlar uchraydi. Ayrim misollarni keltiramiz.

Ayn عین soʻzi. Ushbu soʻz oʻzbek tilidagi “koʻz” soʻzi singari koʻp maʼnolidir. Zero, uning dastlabki lugʻaviy maʼnosi ham “koʻz”dir. Mazkur soʻzning maʼnolaridan baʼzilariga eʼtibor beramiz:

Koʻrish organi maʼnosida. Eski oʻzbek tilida “koʻz” maʼnosidagi “ayn”ning ikkilik shakli “aynayn” ham ishlatilgan. Biror narsaning mohiyati maʼnosida. “Ayn-i haqiqat”; “ayniqsa” (ayni qissa).

Oʻzbek tilida buloqning koʻzi birikmasi boʻlib, bunda “koʻz” oʻz aniqlovchisiga ega. Arab tilida esa buloq maʼnosini “ayn”ning oʻzi anglatadi. Ayonki, bu soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllash natijasidir. Shuningdek, forsiyda buloq maʼnosini anglatuvchi “chashma” چشمه soʻzining oʻzagi ham “chashm” چشم - koʻzdir.

Bundan tashqari, “ayn”ning quyosh maʼnosi ham bor. Buning ham dastlabki maʼno bilan aloqadorligi seziladi.

Umuman, “ayn” nihoyatda sermaʼno soʻz boʻlib, uning 40 dan ziyod maʼnoda izohlanishi kuzatilgan.

Har bir tilda ham real (leksik) maʼnosi bilan birga koʻchma maʼnoda ishlatiladigan soʻzlar boʻladi. Bunda soʻz anglatgan tushunchaning xususiyatlari yoki xususiyatlaridan biri asos qilib olinadi. Misol uchun, bahor butun borliqda jonlanish boshlanadigan fasldir. Shuning uchun ham koʻchma maʼnoda bahor biror voqea-hodisaning ibtidosi, gullab-yashnagan davri kabi maʼnolarni anglatadi.

Ogahiy tilidagi baʼzi arabcha soʻzlar ham koʻchma maʼnoda ishlatilgan. Bunga yaqqol misol asar nomining oʻzidir. “Zubda”ning real maʼnosi

“qaymoq”dir. Bunda esa “zubda” eng yaxshi, saralangan ma’nosini bermiqda.
“Zubdat ut-tavorix” – “Saralangan tarixlar”.

“Metaforada soʻz ma’nosi oʻzgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman oʻzgarmay, balki uning dastlabki ma’lum bir belgisi qolgan boʻladi”. Metaforada soʻz ma’nosi oʻzgarsa ham, uning real ma’nosi anglatgan tushunchaga bogʻliq boʻlgan bir mazmun kasb etgan holda oʻzgaradi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida hamisha taraqqiyotdadir. Tilning eng koʻp oʻzgarishga uchraydigan a’zosi leksikadir. Leksika ijtimoiy-siyosiy, madaniy oʻzgarishlar, bir soʻz bilan aytganda tilda ma’lum bir oʻzgarishlar qilishga qodir voqea-hodisalardan tez ta’sirlanadi. Bundan tashqari, leksikadagi siljish va oʻzgarishlar tabiiy jarayondir. Bu jarayon soʻzlarning ma’no kengayishi va torayishida yaqqolroq kuzatiladi. Masalan, *musamman* مثنى soʻzi dastlab sakkiz qirrali shaklga nisbatan ishlatilgan boʻlib, ma’no kengayishi natijasida badiiy adabiyot janrlaridan birining nomiga aylangan. Bunda oʻsha janrning asosiy xususiyati – misralar soni sakkizta ekanligi asos boʻlgan.

Biror tildan oʻzlashgan soʻzlar hamisha ham oʻzi anglatgan ma’nodan siljigan holda ham ishlatilishi mumkin. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan arabizmlarda ham bu holat kuzatiladi. Shu oʻrinda *xalq* soʻzining ma’nolari va qoʻllanishi bilan tanishib chiqish mumkin. Bu soʻzning oʻzagi *xalaqa* خلق fe’li boʻlib, yaratmoq degan ma’noni beradi. “Xalq” esa ana shu fe’lning masdari – harakat nomidir. Alloh yaratgan har bir narsa xalq qilingan – yaratilgan hisoblanadi. Xuddi shu fe’lning majhul daraja sifatdoshi boʻlgan *maxluq* مخلوق soʻzi butun yaratilmish, jumladan, insonga nisbatan ham ishlatiladi. Inson maxluqot ichida mukarrami boʻlgani bois, uni hayvonot bilan teng sifatlash gʻayritabiiy tuyulganidan *maxluq* jonjotlarga nisbatan ishlatila boshlangan va mazkur soʻzning insonga nisbatan ishlatilishi salbiy ma’no kasb etishi shu bilan izohlanadi.

“Zubdat ut-tavorix” asarida omonim soʻzlar kam uchrasa-da, qoʻllanilgan omonimlarning har qaysisi juda goʻzal bir ma’no anglatib keladi:

I. *Boz* باز ochish ma’nosida; koʻzlarini boz ayladi – koʻzlarini ochdi, kabi,

II. *Boz* بوز – lochin, qush ma’nosida; shoxbozi shikorandozlik – lochin bilan ov ovlamoqlik kabi.

III. *Boz* بوز yana, tag’in ma’nosida; boz – dod – yana ber.

IV. *Boz* بوز – boxtan fe’lining asosi (o‘zak) dorboz – dorda o‘ynovchi; boz – o‘ynamoq ma’nosida.

I. *Bor* بار yuk ma’nosida;

II. *Bor* – meva, xosil ma’nosida.

III. *Bor* –qabul, ijozat, ruxsat ma’nosida qo‘llanilgan.

Yo يا fors tilidagi undov so‘z, o‘zbek tilidagi ey so‘ziga to‘g‘ri keladi.

Yo يا yoki, yohud, yo kabi ma’nolarni anglatib keladi.

Eski o‘zbek tili hozirgi o‘zbek adabiy tilining asos bosqichi sifatida omonimlar tizimi nuqtayi nazaridan ko‘plab o‘xshashliklar bilan birga o‘ziga xosliklarga ham boy bo‘lishi tabiiy. Bunday umumiylik va xususiylik, buning ayrim sabablari xususida quyidagi misollar orqali so‘z yuritishga harakat qilamiz:

2. O‘zqatlamda mavjud biror so‘z shakldosh o‘zlashma so‘z paydo bo‘lishi natijasida ham omonimlar hosil bo‘ladi. Masalan, o‘zbekcha *yor* (yormoq, bo‘lmoq) va forsiy *yor* (yor, do‘st, mahbub; mahbuba) so‘zlari kabi.

3. Har xil tildan o‘zlashgan so‘zlar omonim bo‘lishi mumkin. Masalan, ruscha *sud* (davlat organi, sud) va forsha *sud* سود – foyda, manfaat.

4. Biror tildan bir so‘z o‘zlashadi, yana bir so‘z fonetik o‘zgarishga uchrab, shu so‘z bilan omonim bo‘lib qoladi. Misol uchun arabcha *huzur* حضور hozir bo‘lmoq va arabcha *huzur* حضور so‘zlari. Ikkinchi *huzur* “huzur-halovat” birikmasidagi aslida “haz” حظ so‘zining siniq ko‘pligidir va u hozirgi o‘zbek adabiy tilida fonetik o‘zgarishga uchrab, omonim so‘zlar sirasiga kirgan.

5. Biror tildan o‘zlashgan (ko‘pincha ruscha-baynalmilal) so‘zlarni tarixiy-etimologik printsip asosida yozish natijasida omograflar paydo bo‘ladi. Masalan, ruscha *ton* (ruschaga yunonchadan o‘zlashgan, *tonos* – ovozning kuchayishi) va o‘zbekcha *ton* – tonmoq, bo‘yniga olmaslik.

6. O‘zqatlamda mavjud yoki o‘zlashgan so‘zga shaklan mos bo‘lsa ham, urg‘uda farq qiluvchi so‘z boshqa biror tildan o‘zlashadi. *Atlas* اطلس (arabcha) –

silliqlik atlas, ipak matoning bir turi, *atlas* (afsonaviy yunon pahlavoni Atlant nomidan) – atlas, ma’lum maqsadda tuzilgan kartalar to’plami.

7. O’zlashgan (xususan, ruscha-baynalmilal) so’zning grammatik xususiyati o’zgarishi natijasida urg’u ham o’zgaradigan so’zlar. Masalan, *agrotexnik* (ot) – mutaxassislik nomi, *agrotexnik* (sifat) – agrotexnikaga oid.

Ogahiy tilidagi omonimlarni kuzatar ekanmiz, hozirgi o’zbek adabiy tili va eski o’zbek tilidagi, boshqacha qilib aytganda, diaxron va sinxron tasnifning o’xshash va farqli tomonlarini ko’ramiz. Ogahiy tilidagi (eski o’zbek tilidagi deyish ham mumkin) omonimlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Sof omonimlar. Harfiy ifodasi (shakli) va talaffuzi aynan bir xil so’zlar. Bunday so’zlar badiyatda tajnisi tom hosil qiladi. Masalan, *asr* (arabcha) **عصر** vaqt birligi, yuz yillik, *asr* (arabcha) **عصر** – namoz vaqtlaridan biri, shu paytdagi namoz.

2. Talaffuzi bir xil, harfiy ifodasi har xil bo’lgan omonimlar. Masalan, *nasr* **نصر** – sochish, proza, *nasr* **نصر** – yordam, nusrat, g’alaba, *nasr* **نسر** - burgut. Uchala so’z ham arabcha. Ularning talaffuzida arab tilida farq bor, lekin o’zbek tilida yo’q.

3. Imloda unlilar ifodasi va talaffuzida unlilarning cho’ziq-qisqaligida ma’lum darajada farq qiladigan, ba’zi o’rinlarda (masalan, vazn bilan bog’liq hollarda) bu farq sezilmaydigan omonimlar. Misol uchun, *dur* **در** (arabcha) – inju, dur, *dur* yoki *du:r* **دور** (forsiy) – uzoq (“durbin” **دوربین** so’zidagi), *hur* **حر** (arabcha) – ozod, erkin yoki *hur* **حور** (arabcha) – “Havro” **حورا** “jannat qizi”ning ko’pligi.

4. Omograflar. Harfiy ifodasi bir xil, talaffuzda farq qiladigan so’zlar arabcha. Masalan, *malik* **ملك** (arabcha) – shoh, *mulk* **ملك** (arabcha) – mulk, mol, *malak* **ملك** (arabcha) – farishta, malak. Yoki *dayr* **دير** (arabcha) – butxona, majozan, mayxona, *di:r* **دير** (forsiy) – kech (kechikish). Arab imlosiga asoslangan eski o’zbek yozuvida harakot (qisqa unlilarni ifodalovchi diakritik belgilar) va boshqa belgilar (tashdid, sukun kabilar) yozuvda aks etmasligi, ularning harf hisoblanmasligi e’tiborga olinib, yuqoridagi misollar omograf hisoblanadi.

5. Omofonlar. Shakli har xil, talaffuzida (undoshlar orasida) qisman farq mavjud. Masalan, *nufuz* نفوذ (arabcha) – nufuz, imidj; *nufus* نفوس (arabcha) – “jon” ma’nosidagi *nafs* نفس ning koʻpligi, aholi.

6. Urgʻu oʻrniga koʻra farqlanadigan, lekin harfiy ifodasi bir xil soʻzlar. Misol uchun, *vali*: ولي (arabcha) – urgʻu *i*:da, *valiy* shar’iy va tasavvufiy istiloh, *vāli* yoki *vāle* ولي (arabcha *valikannannig* qisqargani) urgʻu *ada* (*lekin* – zidlov bogʻlovchisi).

Ogahiy tilidagi omonimlar tasnifini quyidagi jadvalda koʻrish mumkin :

Turi	harfiy ifodasi	talaffuzi	misollar	
sof omonimlar	bir xil	bir xil	عصر	عصر
omonim	har xil	bir xil	نثر	نصر
omonim	har xil	bir xil unlilar choʻziqligida farq bor	در	دور
omofonlar	har xil	qisman farq bor	نفوذ	نفوس
omograflar	bir xil	farqli	دير	دير
urgʻu oʻrniga koʻra farqli	bir xil	urgʻuda farq bor	ولى	ولى

Izoh: Harfiy ifoda deganda arab imlosi (Ogahiy tilining original imlosi) nazarda tutiladi.

Koʻrinib turibdiki, tasnifdagi 2- va 3-tip omonimlar hozirgi oʻzbek adabiy tiliga xos emas.

Lugʻaviy shakldosh soʻzlarning mufasssal tasnifini M.Rustamiyning “Lugʻaviy shakldoshlik va uning turlariga doir” maqolasida koʻramiz.

Endi bir necha omonim soʻzlarni izohlashga harakat qilamiz.

ASR I. Arabcha **عصر** ot. 1. Yuz yillik, asr. 2. Zamon, davr.

ASR II. Arabcha **عصر** ot. Diniy istiloh.

Tushdan keyin odamning soyasi oʻzidan ikki barobar kattalashgandan keyin kun botishigacha boʻlgan vaqt, shu vaqtda oʻqiladigan namoz. Asr namozi xalq orasida koʻpincha “namozdigar” deyiladi. Bu soʻz aslida *as-calotu-l-asr* **العصر الصلاة** boʻlib, *salat* (namoz) soʻzi tushib qolgan va uning vazifasi *asr* soʻziga yuklangan.

MANSUR I. Arabcha **منصور** ot. Joriy imlomizdagi bu shaklning eski oʻzbek tilida “s”si arab imlosidagi “sod” **ص** bilan hamda “se” **ث** bilan ifodalanadigan ikki shakli boʻlib, birinchisi (“s”si “sod” bilan)ning oʻzagi yordam bermoq, gʻalaba qozonmoq maʼnosidagi nasara **نصر** feʼlidir. “Mansur” ushbu soʻzning majhul darajadagi sifat doshidi va gʻalaba qozongan, yordam berilgan, degan maʼnolarni anglatadi. Oʻzbek antroponimlaridan biri *Mansur* va uning muannas shakli *Mansura* ana shu maʼnoni anglatadi.

MANSUR II. Arabcha **منثور** ot. Bu soʻzning oʻzagi sochmoq maʼnosidagi nasara **نثر** feʼlidir. *Nasr* **نثر** – nasr, proza, nisor **نثار** – sochish kabi soʻzlar shu feʼldan ishtiqoq qilingan. “Mansur” shu feʼlning oʻtgan zamon sifat doshi shaklidir. U “mafʼul” qolipida hosil boʻladi: *nasara* **نثر** faala **فعل** mansur **منصور** mafʼul **مفعول**

Badiiy adabiyot janrlaridan biri mansura (sochma sheʼr) shu soʻz asosida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda Ogahiy tilida omonimlar, asosan quyidagi yoʻllar bilan yuzaga kelganini koʻramiz:

1. Maʼno koʻchishining chuqurlashuvi hamda koʻp maʼnoli soʻzlar oʻrtasidagi “zanjir”ning uzilishi natijasida. Bunda koʻpincha birinchi tip

omonimlar yuzaga keladi, masalan, afgʻon افغان (forsiy) – nola, afgʻon, figʻon, afgʻon افغان (forsiy) – xalq nomi.

2. Oʻzqatlamda mavjud biror soʻzga shakldosh boʻlgan soʻz arab yoki fors tilidan oʻzlashishi natijasida. Masalan, man (turkiy) – “men”ning fonetik varianti, kishilik olmoshi, man من (arabcha) – ogʻirlik oʻlchovi.

3. Arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlar oʻzaro omonim boʻlishi mumkin. Masalan, bahr بحر (arabcha) – dengiz, daryo, bahr بهر (forsiy) – 1. Bahra, manfaat. 2. Uchun (koʻmakchi). Bu xil omonimlar birinchi va ikkinchi tipga kirishi mumkin.

4. Arab yoki fors tillaridan yoki ikkala tilning biridan oʻzlashgan soʻzlar uchinchi tip omonim boʻlishi mumkin. Masalan, dur در arabcha va du:r دور fors tillaridan, hur حر va hur حور har ikkalasi arab tilidan.

5. Arabcha, forsha, turkiy soʻzlar omograf boʻlishi mumkin. Masalan, دیر dayr (arabcha) – butxona, دیر dir (forsiy) – kech, دیر der (turkiy) – “demoq” feʼlidan.

6. Arabcha, forsha, turkiy soʻzlar omofon boʻlishi mumkin.

7. Urgʻu oʻrniga koʻra farqlanuvchi soʻzlar omofon boʻlishi va hokazo.

Mazkur xususiyatlar butun eski oʻzbek tiliga xosdir.

Yuqorida faqat leksik omonimlarni koʻrib chiqdik, xolos. Omonimlarning boshqa turlari tadqiqi ishni davom ettirishni taqazo qiladi.

1.2. Ogahiy asarlarida qoʻllanilgan omonimlarning ayrim oʻziga xosliklari.

Eski oʻzbek tilida, jumladan, Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi omonimlarning yuzaga kelish omillari, oʻziga xosliklarini quyidagi misollar vositasida koʻrsatib berishga harakat qilamiz:

Sogʻin soʻzi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *sogʻin* shaklida “sut beradigan, sogʻiladigan” maʼnosidagi sifat ham *sogʻinmoq* feʼli asosli omonimlari mavjud. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da ular lugʻat tamoyiliga koʻra shakldosh sifatida qayd etilmagan. Bu soʻz “ayriliqdagi yaqin kishisini

juda koʻrgisi kelmoq; qoʻmsamoq; sogʻinch hissini sezmoq”, *umuman*, “qoʻmsamoq”, “*xumor qilmoq*” “*ravo koʻrmoq, istamoq*” ma’nolarini *anglatadi*¹⁹. Eski oʻzbek tilida hozirda “koʻrishni istab gʻamgin boʻlmoq”, “sogʻinch his etmoq” mazmunidagi *sogʻin-* i(*sagʻin-*) fe’li ushbu mazmundan tashqari “hisoblamoq”, “tushunmoq”, “gumon qilmoq”, “oʻylamoq” ma’nolarini beradi. Shuningdek, *sagʻindurmoq* fe’li “eslatmoq”, “esga solmoq”; “esga olmoq” mazmunlariga ega²⁰. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida shu bosh ma’no asosida *sagʻin-* fe’lining qoʻyidagi ma’no qirralari koʻzga tashlanadi:

1. Oʻylamoq: Sahar namozin ayturda ul xuftan *sogʻindi*. (MAT, 17:27);
2. Hisoblamoq, ...deb bilmoq: bozurgon meni yaxshi amin kishi *sogʻinib*,.. (MAT, 17:72);
3. Faraz qilmoq; tasavvur qilmoq: Abu Solih oʻlsa, kim bila suhbat tutqungdur? Dedim: bilmon. Dedi: holo hamul *sogʻinki*, ul oʻlubdur. (MAT, 17:99);
4. Umid qilmoq, umid bogʻlamoq: *Sogʻindimki*, oxir boʻlgʻusidur. (MAT, 17:218);
5. Gumon qilmoq: Masjid hodimi ul suvni koʻrub *sogʻinibdurki*, darvesh bavl qilibdur. (MAT, 17:163).
6. Sogʻinmoq, istamoq: majolisu mahofilda ani *sogʻinib*, istihson qilur ermish. (MAT, 17:226).

Shuningdek, eski oʻzbek tilida *sagʻindurmoq* fe’lining “eslamoq” asosida yuzaga kelgan “qaygʻurmoq”, “gʻamini emoq” semasi ham mavjudligini koʻramiz: “oxir oʻzni *sogʻindurmoq* kerak” (MAT, 17:208) jumlasida matn taqazo qilgan mazmunga bu soʻz koʻra “odam oʻzini ham oʻylashi, qaygʻurishi kerak” ma’nosida keladi.

Ayrim mulohazalar fe’lining “sogʻinch hissini tuymoq” va “oʻylamoq” ma’nolari oʻrtasida bogʻliqlik borligini koʻrsatib, har ikkala mazmun biror

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Б. 562-563.

²⁰ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 571.

nuqtada tutashishini ochib beradi. Bu fe'ning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi qadimgi qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan "biror kishi haqida qayg'urmoq" ma'nosini beruvchi *saqi*²¹ asosida shakllanganini e'tiborga olsak, *saqi* // *sag'i*²² ning o'zi qachonlardir mustaqil bo'lgan "istamoq" yoki "yaxshi ko'rmoq" ma'nosidagi *sa*-ga borib taqalishi yanada oydinlashadi. G.Ramsted bu ma'nolarni tungus tilida mustaqil holda "gapirmoq"; "o'ylamoq"; "qilmoq" ma'nolarini beruvchi *sa*- fe'liga qiyosan belgilaydi²³. Bizningcha, bu fe'ning tungus tilidagi dastlabki ikki ma'nosi turkiy tillarda ham bo'lgan. Deylik, *sav*//*sag* – "xabar" hamda hozirgi vaqtda "kuyov tomondan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs"; qadimgi turkiy va XI-XIV asr yodgorliklarida "elchi"; "payg'ambar" ma'nolaridagi *savchi* so'zlari shu mazmun asosida shakllangan. *Sa*-ning "istamoq" ma'nosi va fe'l maylini ifodalash vazifasiga o'tishi xususida turkologiyada e'tiborli ishlar qilingan²⁴. E'tibor qaratsak, *sa*-ning ma'nolaridan biri "o'ylamoq". Analogiya asosida fikr yuritsak, *saq* // *sag* shaklida "o'y", "fikr" ma'nolaridagi ot shakllangan. Undan *-n* qo'shimchasi vositasida *saqi* // *sag'i* shaklli *o'ylamoq* < *istamoq* < *qayg'urmoq* < *fikr qilmoq* < ... *deb o'ylamoq* < *gumon qilmoq* kabi ma'noli fe'l yuzaga kelgan. Yuqorida nazarda tutilgan har ikkala ma'noning tutash nuqtasi, bizningcha, mana shudir. *Saqin*- fe'lining qadimgi turkiy obidalarda ham "andisha qilmoq"; "mulohaza qilmoq" mazmunini kasb etishi uning semantik taraqqiyoti ildizlari chuqurligini ko'rsatadi: "buncha isig kuchug bərtukgəru *saqinmati*" – "Shuncha mehnatini, kuchini sarf qilganini *andisha qilmay...*"²⁵.

Qo'y so'zi. "Biror makonga joylashtirmoq" ma'nosidagi fe'ning dastlabki shakli *qod* bo'lgani ma'lum²⁶. Ushbu so'z tahlilida Sh.Rahmatullayev "*qoz*-, *qot*- so'zlarini ham qamrab olib fikr yuritsak, qadimgi turkiy tilda "o'rin" ma'nosini

²¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 118.

²² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. II жилд. – Тошкент, – Б. 178.

²³ Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. - М.: Наука, 1962. - С. 296.

²⁴ Бу ҳақдаги ишлар таҳлили Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. - М.: Наука, 1962. - С. 295-316; Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майлларининг тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1980 каби ишларда берилган.

²⁵ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 104.

²⁶ Древнетюркский словарь. – Л.: 1969. – С. 451, 453.

anglatgan *qo* oti mavjud boʻlganiga, *qod-*, *qoy-*, *qot-* soʻzlari oxiridagi undoshlar aslida feʼl yasovchi ekaniga ishonch qilamiz” – deb yozadi ²⁷. Olim taʼkidlaganidek, ushbu misollardagi *-d*, *-y* “yoʻnalish”, *-z*, *-t* “qoldirish” maʼnosini ifodalagan boʻlib chiqishini *tʻʻy* (bu oʻrinda biror narsani yigʻishtirib, joylash, *tug-* feʼlining qipchoq lahjasidagi shakli) va *tut-* feʼllarini qiyoslash orqali ham koʻramiz. Shu tariqa *qoy* va *qozī* soʻzlarining ildizi umumiy degan mulohaza bilan fikrlasak, *qoy* soʻzining oʻzi *qo* oʻzagidan hosil boʻlgan sanaladi. Lekin bu masala anchayin murakkab boʻlib, N.A.Baskakov ancha yillar oldin taʼkidlagan boʻlishiga qaramay, “turkiy oʻzaklarning qurilish muammosi va ularning fonetik tarkibi haqidagi munozara hamda ularning tadrijiy taraqqiyoti (C)VC-CV(C)- (C)V(C)-CVCdan boshlanganmi yoki V>CV-VC-CVCdan boshlanganmi, bu narsa hozirgi paytgacha tortishuvchi va hal etilmay kelinmoqda”²⁸.

Demak, *qod* // *qoz* (“z” tishora undosh) // *qoy* qadimgi turkiy *qo* – “oʻrin” soʻziga “joylashish” maʼnosidagi *-d*//*-y* qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan. Buni mazkur jonivorning dastlabki uy hayvonlaridan boʻlganini taxmin qilish, ajdodlar tomonidan dastlab xonakilashtirilgan jonzotlardan ekanini hisobga olish bilan asoslash mumkin. SHunga koʻra, *-d*//*-y* undoshlari “joylashish” maʼnosida ayni paytda ham ot, ham feʼl hosil qilishi ayon boʻladi. Turkiy tillarda ot va feʼl oʻrtasidagi bu tariqa yuzaga kelgan omonimlar maxsus oʻrganilgan²⁹. Yuqoridagi fikrga yana bir dalil sifatida quyidagi lisoniy faktga eʼtibor qarataylik: Mahmud Koshgʻariy *qoy*ning *y* undoshi *nga* almashgan *qon* shakli ham borligini qoʻrsatgan³⁰. Soʻzning bu shaklini qadimgi turkiy tildagi “maʼlum bir sathdan joy olmoq” maʼnoidagi *qon-* feʼliga qiyoslasak, har ikkala soʻzning (*qoy* va *qon*) nomlanish tamoyili bir xil boʻlganini kuzatamiz.

²⁷ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 583.

²⁸ Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков (структура слова и механизм агглютинации). – М.: Наука, 1979. – С.141.

²⁹ Щербак А.М. К вопросу о происхождении глагола в тюркских языках // Вопросы языкознания. – 1975. – №5. – С. 18-29.

³⁰ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. III жилд. – Тошкент: Ўз ФАН, 1963. – Б. 154.

Hozirgi turkiy tillardan ozarboyjon, turkman tillarida *g□ojun*, oltoy, qozoq, qoraqalpoq, qirg□iz, no□g□oy, uyg□ur, gagauz tillarida *kojun*, tuva, xakas tillarida *xoi* bo□lgan bu so□zning oltoy oilasiga mansub mo□g□ul tilida *xoni(n)*, manjur tilida *xonin*, tungus tilida *konin*³¹ bo□lgani ham bu so□zning naqadar qadimiyligiga dalolat qiladi. Sh.Rahmatullayev *qoyun* va *qonin* shakllaridagi *-n* qo□shimchasini kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalasa kerak, degan mulohazani bildiradi³². Ibn Muhanna lug□atida ham ushbu shakl keltirilgan³³.

Eski o□zbek tilidagi omonimlar tahlili hozirgi o□zbek adabiy tili lug□at tarkibini chuqur o□rganishda, tilimizning har ikkala etapining lug□at tarkibidagi umumiy va xususiy jihatlarni ochib berishda muhimligi ayon.

Ogahiy tarixiy asarlarida qo□llanilgan omonimlarni lisoniy xarakteriga ko□ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Shaklan to□la mos, ya'ni talaffuzda ham, yozuvda ham shakldosh hamda bir so□z turkumiga mansub, ma'lum matndan tashqarida ham omonimlik xususiyatini saqlab qolishi mumkin bo□lgan so□zlar.

2. Talaffuzda ham, yozuv ifodasida ham shakldosh, lekin har xil so□z turkumiga mansub bo□lgan, ya'ni nutqning barcha vaziyatlarida ham shakldoshlik holatini saqlay olmaydigan so□zlar. *Bor (bormoq) – bor (yuk)*.

3. Imloda shakldosh, ammo talaffuzi farqlanuvchi so□zlarabcha Eski o□zbek alifbosiga asos bo□lgan arab imlosi konsananat yozuv ekanligini e'tiborga olsak, asarda bunday so□zlar miqdori ko□pchilikni tashkil etadi. Masalan, *mulk*, *malak*, *malik*; *dur*, *davr*.

4. Talaffuzda shakldosh, lekin imloviy ifodasi farqlanuvchi so□zlarabcha Masalan, *xon – xon* (dasturxon). Bunday so□zlar ikki sabab bilan yuzaga keladi:

a) biror harfning imloda aks etgan talaffuz etilmasligi. Yuqoridagi misolda “dasturxon” ma'nosidagi “xon”da “vov” harfi yozilsa ham, o□qilmaydi. Bunda

³¹ Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // История развития лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН, 1967. – С. 110.

³² Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 583.

³³ Мелиоранский П.М. Арабъ филологъ о турецкомъ языкѣ. – Санктпетербургъ: Типографія императорской академіи наукъ. – 1900. – С. 0108.

fors orfografiyasidagi “xv” harf birikmasidan keyin kelgan “vov” talaffuz qilinmasligi qoidasiga asoslaniladi;

b) arab alifbosida ayrim undoshlar uchun ikki, uch yoki toʻrt harfning mavjudligi. Bu harflar (masalan, se, to, sod, ayn) ifoda etgan tovushlar arab tilida boshqa-boshqa fonemalar boʻlsa ham, oʻzbek tilida ularning talaffuzi farqlanmaydi. Deylik, arab tilida til oldi, portlovchi, jarangsiz “t”ni “te” ifoda etsa, “t”ni “to” harf ifodalaydi. Oʻzbek tiliga esa har ikkala harf vositasida aks etgan undosh til oldi, portlovchi, jarangsiz “t” sifatida qabul qilingan. Bunday holat arab imlosiga asoslanilgan eski oʻzbek yozuvida islohotga qadar arab va forsiy oʻzlashmalar imlosida tarixiy-anʼanaviy tamoyilga toʻla rioya qilish natijasida yuzaga kelgan. Eski oʻzbek tilida boʻlgani kabi bunday soʻzlar miqdori Ogahiy tarixiy asarlarida ham oz emas. Masalan, *alam* – ogʻriq, dard, alam; *alam* – bayrov, tugʻ, alam.

“Dam” soʻziga esa mumtoz adiblarimiz asarlari tiliga tuzilgan lugʻatlarda quyidagicha izoh berilgan:

DAM I f. – nafas, lahza, on;

DAM II f. – temirchining dami;

DAM III a. – qon³⁴. Nima uchundir mazkur oʻrinda “dam” soʻzining Alisher Navoiy asarlari tilida ham mavjud “tigʻ” maʼnosi nazardan chetda qolgan. Soʻzning bu mazmuni hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham faol va “ikki tigʻli qilich” maʼnosidagi “dudama” soʻzida ham koʻrinadi. Bu soʻz Munis va Ogahiy asarlari tilida harbiy termin sifatida ham, koʻchma maʼnoda ham ishlatilgan: “Sheʼr ul *tigʻi dudamdurkim*, yurub olamni fath etar”. (Munis Xorazmiy). Taʼkidlash kerakki, arabcha “dam” soʻzining asl shakli “damm” boʻlib, tarkibiga koʻra muzofaf (muzaofi mulosiy) hisoblanadi. Shuning uchun ham undan boshqa soʻzlar ishtiyoq qilinganda “dimom” shaklini oladi. Jumladan, “Va lekin ehtimoli borkim, shujaʼoyi hujastasifotdin baʼzining gavhari zotigʻa xalal va nuqsoni etkaykim, ul xazaf miqdor mazallatosorlarning yuz mingi birining qadami

³⁴ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972 – Б. 176.

gʻuborigʻa bah boʻla olmas va yana zohirdurkim, har shahar va viloyatekim, qahran va qasran musaxxar boʻlsa, *safki dimo*’ vuqu’ topib, koʻp kishining molu jonigʻa zarari fohish etishgusidur ma’nosidagi “sakfa-d-dimom” soʻzi asardagi Muhammad Aminxon madhida yozilgan qasida matnida ishlatilgan. Demakki, keltirilgan baytning birinchi misrasida Ogahiy “tez” soʻzining “oʻtkir”, “dam” soʻzining “tigʻ”; ikkinchi misrasida esa “tez” soʻzining “tezda”, “chaqqon”, “dam” soʻzining “qon” ma’nolarini nazarda tutgan holda sintaktik omonimiya hosil qila olgan.

Asarda qoʻllanilgan omonimlarni oʻzaro turli lugʻaviy qatlamga mansub soʻzlar doirasidagi munosabatini quyidagi guruhlash mumkin:

1. Turkiy soʻzlar bilan forsiy soʻzlar oʻrtasidagi omonimiya. Masalan, turkiy “soʻz” va forsiy “soʻz”. Turkiy

Boʻlub karam tafakkur, Ogahiy, qil puxta *soʻznikim*,

Soʻzinggʻa soʻz toporgʻa ochmasun hech bir suxandon lab.

Eʼtibor qaratsak, ikkinchi misradagi *soʻz topmoq* birimasini shoir iyhom asosida ikki ma’noda ishlata olgan: 1. Javob aytmoq. 2. Nuqson topmoq, ayb topmoq, nuqsonli deb bilmoq. Hozirgi *gap topmoq* iborasi.

Endi diqqatingizni shu oʻrinda boshqa bir jihatga qaratmoqchimiz. Baytni hozirgi shaklidan tugal fikr anglash qiyin, ya’ni grammatik jihatdan bayt tuzilishida xato bor. Albatta, Ogahiydek daho ijodkor tilning umumiy qoidalaridan chekingan holat kuzatilmaydi, bunday qilish, xususan, ulugʻ soʻz san’atkorlari butun umr qarshi kurashgan illat. Shuning uchun, nashr davomida ju’ziy eʼtiborsizlik kelib chiqqan degan xulosaga keldik. Sababi baytdagi “boʻlub karam tafakkur” birikmasini “boʻlub garmi tafakkur” tarzida oʻqish kerak. Chunki birinchi holatda umuman biror fikr anglashilmaydi. Ikkinchi holat esa “tafakkur bilan mashgʻul boʻlgan holda”, “teran tafakkur qilgan holda” degan ma’noni beradi. Aslida “issiq” ma’nosini anglatgan “garm” soʻzi izofiy holatda “biror narsa bilan band boʻlish”, “hoyat mashgʻul boʻlish” ma’nosini beradi. Fors tilida “ish bilan bandman” mazmuni “sargarmi koram” tarzida namoyon boʻlishining sababi shu. Eng asosiysi, qoʻlyozmada garm va karam soʻzlari bir

yoziladi. Chunki kotiblar " گوف" va ك "kof" harflarini odatda bir xil shaklda yozadilarabcha Eng muhimi bizning islohimizdan keyin bayt vazni oʻz joyiga tushadi, hazaji musamanni solim holiga keladi.

Demak, shunga koʻra, bayt mazmunini ikki xil talqin qilish mumkin boʻladi: 1. Ogahiy, tafakkurga gʻarq boʻlib, soʻzingni puxta qilki, hech bir suxandon (soʻz ustasi) soʻzingdan nuqson topmasin. 2. Ogahiy, teran tafakkur bilan sheʼriyatingni shunday puxta qilki, unga hech bir soʻz ustasi teng keladigan javob bita olmasin.

Baytdagi "karm" soʻzini *garm* ekanini aynan "puxta" soʻzining ham ishlatilayotgani yana bir karra asoslaydi. Chunki, lugʻaviy jihatdan "issiq" maʼnoli *garm* va asl maʼnosi "pishiq" boʻlgan *puxta* soʻzlari tanosub sanʼatini hosil qiladi.

Oʻzbek tili tarixiy manbalaridagi omonimlar masalasi bir qadar oʻrganilgan.³⁵ Leksik omonimiya leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasidir. Masalan: *olov* ("olov") – *olov* ("maysa"); *kamar* ("qayish, koʻndan ishlangan belbogʻ") – *kamar* ("daryo, togʻlarda suv oʻyib ketgan chuqur joy") kabi.

Eski oʻzbek tili materiallaridan kelib chiqqan holda leksik omoni-miyada ikki xil hodisa mavjudligi koʻrinadi: omonimlar va omoformalarabcha

1. Omonimlar shakli bir xil, maʼnolari har xil (oʻzaro bogʻlanmagan) leksemalardir. Ular omonimlar, omoleksemalar deb ham ataladi.³⁶ Bunday omonimlarning koʻpchiligi bir soʻz turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil boʻladi.

Bu tip omonimlarni Ogahiy tarixiy asarlarida koʻplab uchratamiz. Buni *bor* بار soʻzining turli maʼnolarini izohlash orqali ham koʻrishimiz mumkin. Jumladan, *bor* بار shaklidagi soʻz bir necha maʼno anglatadi.

1. Bor بار turkiy. "Barcha", "hamma" maʼnosida:

³⁵ Рустамий М. Луғавий шаклдошлик ва унинг турларига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1994, 1–2- сонлар, 28–32-бетлар.

³⁶ Jamolxonov H. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Kirish. Fonetika va fonologiya. Orfoepiya. Grafika va orfografiya. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. Toshkent, 2002, 128-bet.

*Yoq ersa bukim, e'tiborot erur,
Adamdur bori, boqiy ul zot erur. (3-b.)*³⁷

2. *-dir* boglamasining eski o'zbek tilidagi yana bir formasi:

*Zihi sohabsabotu ko'htamkin,
Ki bordur tog'din orom ichra sangin. (369-b.)*

3. *Bor* fors tiliga mansub so'z bo'lib, "yuk" degan ma'noni anglatadi. Quyidagi misrada *bor* so'zining "mavjud" va "yuk" ma'nolarini umumiy qo'llash orqali iyyom san'ati yaratilgan:

*Xotir aro mehnatu g'am bor edi,
Ranju a'no jon aro bisyor edi. (16-b.)*

Agar Munis qalamiga mansub

*Base g'am boridin chekmish og'irni,
YAg'ir bo'lmish hazin ko'nglim yag'irni*³⁸

baytini eslasak, ushbu baytda ham *bor* so'zi bir paytda "mavjud" va "yuk" ma'nolarida ishlatilganini ko'ramiz.

Ogahiy asarlaridagi *borbardor* (yuk ko'taruvchi) so'zi ayni shu forsiy so'z asosida hosil qilingan: Dushanba kuni buxtiyi qator va jamozayi *bor-bardor*, to'pxona saroparda va peshxonani choshtgohda ko'churub,... (1028-b.).

4. *Bor* so'zi – *bormoq* fe'lining buyruq shaklida qo'llanilgan:

*Etkur o'zing dori xulofat sori,
Boshing olib bor dari davlat sori. (16-b.)*

II. Omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi.³⁹ Masalan, *sur* (ot, forsiy o'zlashma "to'y", "bazzm") va *sur* (turkiy, *surmak* fe'li asosi) leksemalari ayni shu shaklda lug'atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda *sur* (ot) va *sur* (fe'l) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qoladi. Demak, bu ikki leksema o'rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi *sur* so'zi bosh

³⁷ Мунис ва Огаҳий. Фирдавсу-л-икбол. Ю. Брегель нашри. Лейдин. 1988 (Асардан олинган бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан бўлиб, қавс ичида саҳифаси кўрсатилади).

³⁸ Мунис. Сайланма. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 6-бет.

³⁹ Жамолхонов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2004, 129-бет.

kelishik hamda qayd etilgan fe'l amr (buyruq) shaklida bo'lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo'qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemadan farq qiladi.

Asarda *sur* shaklida ikkita alohida so'z mavjud bo'lib, biri turkiy *sur* fe'lining buyruq shakli bo'lsa, biri shu shakldagi "to'y", "shodiyona" so'zidir: Bu suratdin bag'oyat muhtahij va masrur bo'lub, ulug' to'y va azim *sur* tartib berdi (58-b.);

Buyon *sur* samand aylabon iltifot,
O'luk jismlarga kiyurgul hayot. (107-b.)

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir. Xususan:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakllari tasodifan teng bo'lib qoladi: *Xor* – xoru zor, xo'r: Xorazm mamolikin turkmaniya oldi va o'zbekni *xor* tutti. (147-b.);

Xor – tikan, xas, cho'p:

Chehrayi dilorosi gardu qong'a anduda,
Kokili mutarroshi *xoru* xasg'a oluda. (176-b.)

2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unutilib, bir so'z negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: *kun* ("quyosh") – kun ("sutka", "kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo'lgan vaqt") ka-bi.

Ogahiyning tarixiy asarlaridagi arab tiliga oid so'zlarning mutlaq ko'pchiligi ayni shu guruhga mansubdir. Masalan,

Dayr – manzil:

Fano *dayrining* bog'la ehromini,
Ol ilkingga osudaliq jomini. (1168-b.)

Dayr – mayxona.

3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo'lib qoladi: *toy* (o'zbekcha "otning ikki yashardan

kichik bolasi”) – *toy* (forsiy: “katta to’p qilib taxlab yoki bosib bog’langan mol va shu tarzda mol o’lchovi”).

Bunga asardan turkiy *so’z* (kalima) va forsiy “kuyish”, “yonish” ma’nosidagi *so’z* so’zlarini misol keltirish mumkin:

Yuzidin viloyatga to’lturdi nur,

So’zidin ko’ngullarga zavqu surur.

Adovat o’ti o’yla *so’zon* durur

Ki, kul qilmay o’chmak ne imkon durur. (47-b.)

Asl turkiy yoki o’zbek tilida qadimgi turkiy til davridanoq qo’llanishda bo’lgan so’zlarga omonimlik kasb etgan lug’aviy birliklardan biri *xon*dir. Ijtimoiy-siyosiy termin sifatida *xon* so’zining genetikasi xitoy tiliga borib taqaladi.⁴⁰ Ogahiy tarixiy asarlarida bu so’z turkiy va forsiy izofiy holatlarda nihoyatda keng ishlatilgan. Ikkinchi *xon* خوان esa forsiy so’z bo’lib, “dasturxon”, “sufra” ma’nolarini anglatadi.⁴¹ Bu so’zning *xvon* tarzida yozilib, *xon* shaklida o’qilishi tasodifiy emas. Bu mazkur so’z-ning tarixiy-etimologik tavsifi bilan bog’liq. “Dasturxon” ma’nosidagi *xon* pahlaviy tilida “lagan” (ovqat solinadigan) *xvân* so’zining fors tilidagi ko’rinishidir.⁴² Yangi fors tilida pahlaviy tilidagi *xv* tarkibli ko’plab so’zlar *x* tarzida o’tgani ma’lum. Masalan, *xvap* – *xob* (uyqu). Ogahiyda mazkur so’z “dasturxon”; “noz-ne’mat” ma’nolarida ishlatilgan:

Onga saylab saodat taxtini mahd,

Damodam ishrat *xonidin* berib shahd. (14-b.)

Eski o’zbek tilida va hozirgi adabiy tilimizda so’z yasovchi affiks sifatida qo’llaniladigan *xon* komponenti esa “o’quvchi” (*g’azalxon*); “chaqiruvchi” (*parixon*); “chorlovchi” (*hidoyaxon*); “kuylovchi” (*xushxon*) kabi ma’nolarni beradi. Jumladan, quyidagi jumladagi *abjadxon* (maktabda endi savod chiqara boshlagan bola, abjad – alifbo o’quvchi) so’zida uning bir ma’nosi ko’zga tashlanadi; fuzaloyi zamon va urafoyi davronni ollida tifli *abjadxon* etdilar (16–

⁴⁰ Баскаков Н. А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства.// Тюркология, 1989, №1, стр. 67.

⁴¹ Персидско-русский словарь. Том I, М., 1983, «Русский язык», стр. 574.

⁴² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲ ص ۷۸۲

17-b.). Hozirgi fors tilidagi خواندن *xondan* (oʻqimoq) feʼlining hozirgi zamon negizi boʻlgan *xon* “Avesto”da *xvan*, qadimgi hind tilida *svan* tarzida ishlatilgan.⁴³ Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, Ogahiy tarixiy asarlaridagi *xon* komponentli barcha soʻzlarni mazkur ikki soʻz bilan cheklash mumkin emas. Xususan, toponimlarda uning qamrovi yana-da kengroq. Masalan, *Shoʻraxon* nomini oladigan boʻlsak, uning ikkinchi komponenti *xan* umumeroniy soʻzlar sirasiga kirib, qadimgi eroniy *kap* – “qazmoq”; “qoʻpor-moq” soʻziga borib taqaladi. *Kap* hozirgi fors tilida *qazmoq*; *yulmoq*; *qoʻ-pormoq* mazmunidagi *kapdap* کندن feʼlining hozirgi zamon oʻzagidir.⁴⁴ SHu-ning uchun ham *kap* کن fors tilida, jumladan, oʻzbek tili tarixiy leksika-sida mavjud yasama soʻzlar tarkibida “qazuvchi; qoʻporuvchi” mazmunida kela-di: *goʻrkan* (goʻrkov), *chohkan* (quduq qazuvchi), *qoʻhkan* (togʻni talqon qiluvchi) kabi. Ushbu soʻzning qadimgi hind tilida *kha* shaklida ishlatilgani ham be-jiz emas. Uning turli eroniy tillarda “suv” bilan bogʻliq holda har xil mazmun ifodalashini kuzatamiz. Masalan, yagʻnob tilida *xap*, oʻrta fors tilida *xap* – kanal:⁴⁵ *Shoʻraxon* oriqining saqqosi va Miskin Sayyid alayhur rahmaning maqbarai mutabarrikasi javorigʻa etkan chogʻda... (95-b.). Bu xususda D. Yoʻldoshev eʼtiborli fikrlarni bayon qilgan.⁴⁶

Bulardan tashqari, asarda oʻzbek adabiy tilining tarixiy leksikasida mavjud, ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida faol qoʻllanilmaydigan soʻzlar ham koʻplab uchraydi.

Ogahiy tarixiy asarlarining koʻpgina oʻrinlarida shakldosh soʻzlarning birdan ortiq maʼnolari nazarda tutilgan holda iyhom sanʼati yuzaga keltirilgan. Masalan, *qavs* ning “kamon” maʼnosini berishi hamda burj nomi, hijriy-shamsiy oy nomi ekanidan foydalanilgan holda, “Jomeʼu-l-voqeʼoti sultoniy”ning quyidagi parchasida iyhom shakllangan: “... oftobi olamtob hadangi *qavs* goʻshasining

⁴³ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ ص ۷۸۴

⁴⁴ Персидско-русский словарь. Том 2, М, 1983, “Русский язык”, стр. 356.

⁴⁵ Лившиц В. А., Хромов А. Л. Согдийский язык. Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. М., “Наука”, 1981, стр. 396.

⁴⁶ Юлдашев Д. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик таҳлили. Филол. фанлари номзоди ... дисс. Нукус, 2012, 134-бет.

qaytarib, muhosara tarkin tu-tub, muaskari zafarparvarg^a muovadat qilsalar,... (9786//175^a).

O^ozbek mumtoz adiblari tilida har ikkala ma'no ham keng iste'molda ekanini ko'rishimiz mumkin. Ayrim hollarda *arz qilmoq*, *arz aylamak* keng iste'molda bo'lgan qayd qilingan har ikkala mazmunini ham nazarda tutgan holda iyyom yaratilgan. Masalan, Muqimiyning mashhur "Tanobchilar" hajviyasidagi "arz etayin emdi yozib nomalar" misrasida ham shu holatni ko'ri-shimiz mumkin.

Ana shu so'z asosida yuzaga kelgan *arz aylamak* fe'li "istamoq", "mayl qilmoq" ma'nolarida ham ishlatilgan. Masalan,

Bas manga *arz aylamak* toj-u sarir

Kim, alar ollimda asru haqir. (9786//24^a)

Arz so'zi asosida shakllangan qo'shma fe'llarning yana biri *arzg^a yetkur*- bo'lib, diplomatik munosabatlar xususida gap ketayotgan vaziyatda elchilarning o'z vakolatlari doirasida munosabat bildirishlari, o'z mamlakati hukmdorining yozishma va sovg'alarini taqdim qilishlarini anglatadi: o'zga peshkashu tuhfar bilan dargohi jahonpanoh bandalarining *arzig^a yetkurub*, inoyati podshohonadin masrur va mahzuz bo'ldi (9786//174^b). Fuqarolarning hukmdorga murojaati ko'p hollarda *arzi ahvol* birikmasi orqali bayon qi-lingan: hazrat a'lo xoqoni ma'dalatnishonning fuqaro va raoyo *arzi ahvolining* istifso-ri uchun shikor bahonasi bilan rukub qilg^oni va Qo'ng^o irot navo-hisidin murojaat qilib, xilofat qarorgohiga kelgani (9786//32^b).

ARZ II – biror narsaning kengligi, eni.⁵⁰ Quyidagi parchada o'zaro ma'nodosh arabcha *arz* va turkiy *en* so'zlari birgalikda qo'llangan: "...Otyo'li guzargohidakim, suyi etti erdin yo'l yasab, etti shu'ba bo'lub oqar erdi, ba'zi shu'baning *arzi* ikki tanob va bazining *eni* bir tanob erdi,..." (9786//133b).

ARZ III – yer, zamin. Bu so'z o'z shakldoshidan "a" unlisi "alif" harfi orqali ifodalanishi bilan farqlanadi.

Ogahiy tarixiy asarlari badiyatini oshirishda *dod* so'zining shakldoshligidan ham unumli foydalangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'z undovlardan biri

⁵⁰ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. Тошкент, "Фан", 1983, 109-бет.

hisoblanib, otlashgan holatda “nola”, “figon” ma’nola-rini ham anglatadi. Uning “shikoyat” mazmuni uchun ham ushbu shakl asos boʻlgan: ojizu zaif va miskin fuqarolarning ahvolin surub, *dodigʻa yetmak* va marohimi podshohona bila koʻngillarini olmoq uchun... (9786//44^b).

Eski oʻzbek tilida uning “adolat” ma’nosi ham boʻlib, uning ildizi avestoviy *dâta* – “qonun” soʻziga borib taqaladi va sanskrit tildagi shu ma’noda ishlatilgan *dhâman* soʻzi bilan oʻzakdosh sanaladi;⁵¹ *dodu adlgʻa* mashgʻul boʻldilar va zolimlarning zulmu taaddisi ilkin mazlumlarcha roʻzgori etokidin koʻtoh qildilar (9786//72^b). Koʻrinadiki, ushbu parchada *dod*, *adl*; *zulm*, *taaddi* soʻzlari orqali tarodif va tazod hamda *zulm*, *mazlum*, *zolim* soʻz-lari orqali ishtiqoq va tanosub yuzaga kelmoqda. Eski oʻzbek tilida keng qoʻllanilgan “adolat istovchi” ma’nosidagi *dodxoh* soʻzi ijtimoiy-siyosiy termin sifatida mansab nomi ham boʻlgan. Quyidagi parchada Ogahiy badiiy mohirlik bilan “dodxoh ahli” birikmasi orqali ham adolat istab xonga mu-rojaat qilgan odamlarni, ham oʻsha odamlar Karimxon dodxoh qoʻl ostida boʻlganliklarini nazarda tutib, iyyom hosil qila olgan: *dodxoh ahlining* dodigʻa kamo hadduhu etib, beshinchi kunikim, seshanba erdi, shavkati podsho-hona va savlati xisravona bila Qipchoq qal’asigʻa vorid boʻlub,... (9786//32^a).

Eski oʻzbek tilidagi “dod” komponentli hamma soʻzlarda ham qayd etilgan ma’nolarni izlash toʻgʻri emas. Masalan, *bedod* (zulm) soʻzida, haqiqatan, uning “adolat”, “qonun”, “dastur” ma’nolari yotsa, *xudodod* kabi soʻzlar-da uning fors tilidagi yana bir omonimi – *dodan* (bermoq) fe’lining oʻzagi yotadi. Demak, *xudodod* aynan “xudo bergan”, “tangri ato qilgan” ma’nolarini anglatadi: ...ba’zi noma’qul sabablar bila bu *xudodod* davlatning nisbatida inodu adovat paydo qilmish erdi (9786//51^a).

Ogahiy *dod* shaklli qayd etilgan soʻzlar hamda eski oʻzbek tilidagi “biror ishni oʻrniga qoʻymoq”, “juda yaxshi bajarmoq”⁵² ma’nosidagi *dodin bermak* iborasidan unumli foydalangan holda, quyidagi misoldagi kabi koʻplab

⁵¹ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۱ ص ۸۰۷

⁵² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. Тошкент, “Фан”, 1983, 496-бет.

oʻrinlarda tavze', tajnis va tanosub yuzaga keltirgan: mazlumlar va bechoralar arzi ahvolin soʻrarda *adl-u dod* rusumi *dodin berdilar* (9786//72^b).

Umuman, oʻzbek va fors adabiyotida *dod* shaklli soʻzlar orqali barkamol mazmun va shaklli baytlar, hikmat va bayonlar yaratilgan oʻrinlar koʻplab uchraydi. Masalan, Sa'diy Sheroziy "Guliston"da yozadi:

Zi goʻsh panba berun or-u **dodi** xalq bideh,
Vagar tu menadehiy *dod*, roʻzi **dode** hast.⁵³

Tarjimasi: "Sen qulogʻingdan paxtani olib tashlab, xalqning dodiga quloq sol. Agar sen adolat qilmasang, adolat qilinadigan bir kun bor".

Koʻrinib turibdiki, yuqoridagi tasnif faqat lugʻaviy shakldosh soʻz-larga taalluqli boʻlib, Ogahiy tarixiy asarlarida sintaktik omonimlarga misol boʻla oladigan badiiy barkamol oʻrinlar ham koʻp. Ularning tahlili, bir tomondan, eski oʻzbek tilidagi lugʻaviy omonimlar tabiatini oʻrganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, Ogahiyning shakldosh soʻzlardan foydalanish bobidagi poetik mahoratidan zavqlantiradi. Masalan, "Jome'u-l-vo-qe'oti sultoniyy"dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surub *yilqisin*,
Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin*.

Baytda qoʻllanilgan *yilqisin* soʻzining birinchisi "yilqisini", "ot-ulovini"; ikkinchi va uchinchi qoʻllanishida "yilgisini", "yilligini" tar-zida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni "birovlar maqsa-diga erishib (gʻorat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulo-vini, balki ming ot-ulovini oldi" tarzida namoyon boʻladi. Endi aynan shu baytni

Birov oldi komin surub *yilqisin*,
Na bir *yilqisin*, balki *ming yilqisin*

tarzida tushunib oʻqisak, bayt mazmuni "birovlar maqsadiga yetgan holda (gʻorat qilinganlar)ning yilqisini oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi" koʻrinishini oladi. Asarda soʻz ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski oʻz-bek tilining

⁵³ Dorj 3. Al-rams. www.mehrarham.com.

grammatik qurilishi ham bunga imkon beradi. Shuning uchun badiiy barkamol satrlar nazmda boʻlsin, nasrda boʻlsin, grammatik qoidalarga toʻla rioya qilingan holatdagina yuzaga keladi. Bu kabi baytlar Ogahiy Alisher Navoiyga badiiy mahorat bobida toʻla ergashganlilini koʻrsatib beruvchi faktik material hamdir. Qolaversa, baytda Ogahiy eski oʻzbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Umuman olganda, tilning qator sathlardagi imkoniyatlari uning sintaksis qurili-shida namoyon boʻlishi maʼlum. Qizigʻi shundaki, *yilqi* (chorva) va *yilqi* (yil-gi, yillik) soʻzlarining shakldoshligidan foydanib, tajnis hosil qilish “Qutadgʻu bilik”da ham uchraydi:

Tili yalgʻan urning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa oʻshul *yilqi* ul.
Kishi yalgʻanindan tilama vafa,
Bu bir soʻz sinamish oʻkush *yilqi* ul.

Ogahiy “Qutadgʻu bilik” bilik bilan tanish boʻlmagani aniq. Bunday faktlar esa buyuk isteʼdodlar va maslakdoshlar gʻoyibona ham bir-birlari bilan hamfikr boʻlishidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy asarlardagi omonimlar tadqiqi quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

1. Asarda bayon qilingan tarixiy voqelikni toʻgʻri anglash.
2. Tarixiy asarlarning badiiyligini toʻgʻri tushunish, unda omonim-larga bogʻliq mumtoz badiiy sanʼatlar (tajnis, iychom kabi)larning qoʻlla-nishi orqali lingvopoetik xususiyatlarni yorqinroq oʻrganish.
3. Tilimizda mavjud ayrim omonimlarning lugʻaviy qatlamlar boʻyicha tahlilini amalga oshirish.

Alisher Navoiy asarlari tilidagi omonim soʻzlar tadqiqi hozirgi oʻzbek adabiy tili leksik boyligi manbalari, ayrim soʻzlar semantik evolyusiyasi, qoʻshimchalar taraqqiyoti kabi koʻplab masalalarda boy ilmiy faktlar beradi. Masalan, Alisher Navoiyning mashhur

Qaro koʻzum, kelu mardumlugʻ emdi fan qilgʻil,

Koqum qarosida mardum kibi vatan qilgil⁵⁴.

baytidagi *mardum* soʻzi maʼnolari koʻpchilikka tanish. Lekin ushbu soʻz oʻzbek mumtoz adiblari, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tili leksikasi uchun tuzilgan lugʻatlarda shakldoshlik yoki koʻpmaʼnoli ekanligi nuqtai nazaridan turlicha talqin qilingan. “Navoiy asarlari lugʻati”da *mardum* 1. Odamlar; 2. Qorachiq tarzida koʻp maʼnoli soʻz sifatida izohlansa⁵⁵, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”da *mardum I* (koʻz qorasi) *mardum II* (odam, inson)⁵⁶ omonim sifatida berilgan. Bizningcha, mazkur soʻzning qayd etilgan maʼnolari oʻrtasida bogʻliqlik zanjiri koʻz ilgʻamas darajaga etgani bois ularni (“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi kabi) omonim hisoblash toʻgʻriroq. Bu omonimiya polisemiya natijasida paydo boʻlishiga bir misol sanaladi.

Forsiy *mardum* مردم pahlaviy tilida *martôm*, Turfon matnlarida *mrđhm*, *mardôhm* shaklida ishlatilgan⁵⁷. Koʻrinadiki, u *mard* (odam) va *dôhm* (tuxum, urugʻ, avlod) soʻzlarining birikuvi boʻlib, aynan “odam bolasi” yoki “odam avlodi” degan maʼnoni beradi. Demak, *mardum* fors tilida, shuningdek, eski oʻzbek tilida ham yakka ot (odam, inson, kishi), ham jamlovchi ot (xalq, el, millat) maʼnolarini anglatishi oʻzining tarixiy-etimologik asosiga ega. Tahlillar *mardum*ning dastlabki maʼnosi “inson”, “odam” yoki “xalq”, “el” boʻlib, “koʻz qorachigʻi” maʼnosi “mardumi chashm” – “koʻz odami” birikmasi yoki metafora asosida koʻchgan *mardumak* // *marduma* soʻzining qisqarishi ekanini koʻrsatadi. Qorachiqning “koʻz odami” yoki “koʻz ichidagi odam” deya parafraza hosil qilishini arab tilida ham koʻrishimiz mumkin. Koʻz qorachigʻi arab tilida “odamu-l-ayn” – “koʻz odami” ham deyiladi. Eʼtiborlisi shuki, *qorachiq* soʻzining oʻzi ham “qora” soʻzining xalq, odam maʼnosi asosida shakllangan. *Qara* soʻzi xalq, odam maʼnosida, jumladan, “Bilga xoqon”da ishlatilgan: *qara* –

⁵⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 133.

⁵⁵ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 363.

⁵⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 235.

⁵⁷ Шамсиддин Мухаммад бин Халаф Табризий. Бурхони қотей. – Техрон: Амири Кабир. 1997, – Б. 1985.

black; ordinary, common; common people (BK E29)⁵⁸. Kichraytirish-erkalash ma'nosini hosil qiluvchi *-chiq* shakl yasovchisi otga (garchi u turkumlararo ko'chish natijasi bo'lsa ham) qo'shilishi buni isbotlaydi. Eng muhimi, bu erda turli etnik guruhlariga mansub xalqlar tillaridagi nominatsiya tamoyillari muvofiqligidir.

Mazkur so'zning Alisher Navoiy asarlarida ishlatilishini statistik o'rganish Hazrat lirikasida *mardum* "ko'z mardumi" shaklida yoki ko'z chorachig'i ma'nosiga ishora qiluvchi *diyda*, *g'amza*, *nazar* kabilar bilan ishlatilganini ko'rsatadi. Dalil sifatida aytish mumkinki, "Badoyu' ul-bidoya"da ushbu so'z 24 marta ishlatilgan bo'lib, ularning aksarida – 23 tasida ko'z qorachig'i ma'nosi ko'zga tashlanadi. Masalan,

Kemadin har dam chiqib rangin suv ko'zum qonidek,
Anda yor andoqki *mardum* diydayi purxun aro⁵⁹.
Agar harf o'lsa mudg'am, vahki, xoling nuqta idg'omin
Ayon qildi *ko'zumning mardumi* ichra maqom aylab⁶⁰.

Quyidagi baytda esa *mardum* har ikkala ma'nosida ham ishlatilib, iyhom san'ati yuzaga kelgan:

Ko'z uyidin ul pari ram qildi, *mardum* ashkidin
Bo'ldi chun hamxona tardoman, erur avlo gurez⁶¹.

"Holoti Pahlavon Muhammad"dan olingan quyidagi parchada ishlatilgan mardumafkanliq so'zi "odamlarni yiqitish" ma'nosini berib, uning o'zagi "xalq", "odamlar" ma'nosidagi mardum ekani ayon: "Bovujudi ulki, o'z fanidaki, kushti bo'lg'aykim, shuhrati ul ism biladur va oncha yakfanliqda va mardumafkanliqda kichik yoshliq erkondurkim, shogird kushtigir erkondur va bu fanda ne varzish qilur erkondur"⁶². Hazrat asarlarida "mardumak" ko'z qorachig'i ma'nosida ishlatiladi. Jumladan, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni

⁵⁸ Talat Tekin. Grammar of Orkhon Turkish, Indiana University Press (copyright 1958). Hazirlayan: Blake Sherblom-Woodard and Grace Mrowicki. PDFlashdiran: Mehran Bahari. <http://mehran1.persianblog.com;http://sozumuz.blogspot.com/>

⁵⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 41.

⁶⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 85.

⁶¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 210.

⁶² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 133.

“fazlu kamol hadiqasining *mardumaki biynosi* (koʻradigan koʻz gavhari)”⁶³ deb taʼriflaydi.

Alisher Navoiy asarlari leksik fondi keyingi asrlarda ham mumtoz adiblarimiz uchun meʼyor, oʻziga xos etalon vazifasini bajarib keldi. Masalan, Ogahiy tarixiy asarlarida bu soʻzning quyidagi maʼnolari koʻzga tashlanadi:

Mardum I. 1. Xalq, el (jamlovchi ot). “CHunki *mardum* xizmatin qildi yugurub har taraf”⁶⁴. 2. Odam, inson (yakka ot). Bu maʼno *mardumsuvrat* // *mardumsurat* qoʻshma sifati tarkibida ham koʻrinadi: “baʼzi munofiq, devsiyratu *murdumsuratlarabcha..*” (FI, 525) *Mardumning* yakka ot sifatida ishlatilishi fors adabiyoti klassiklari asarlarida ham uchraydi. Masalan, SHayx Saʼdiy “Guliston”da yozadi:

Sagi ashobi kahf roʻziyi chand

Payi nekon giriftu *mardum* shud⁶⁵. Tarjimasi: “Ashobi kahf (gʻor ahli)ning iti bir necha kun yaxshilar etagini tutdi-yu, odamga aylandi”.

Mardum II. 1. Koʻz qorachigʻi. 2. Mohiyat, asl. “Firdavs ul-iqbol”dagi forsiy bir taʼrixda “Onki, *mardumro* chu chashmu chashmro chun *mardum* ast”, yaʼni “Ulki, elning koʻzi – asl mardi va koʻzning qorachigʻidir” misrasi bor. Koʻrinadiki, oʻzbek tilidagi “koʻz qorasi” (qorachigʻi) anglatgan koʻchma maʼnolar fors tilida ham bor. Oʻzbek mumtoz adiblari tili uchun tuzilgan (tuziladigan) lugʻatlarga *mardumning* “ahl”, “biror hududga mansub kishi”, “fuqaro” maʼnolarini ham darj qilish zarur. Masalan, “SHul erur aybim, Muqimiy, *mardumi* Fargʻonaman”. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan mazkur soʻzning har ikkala maʼnosi, shuningdek, *mardum* tarkibli *mardumozor*, *mardumozorlik*, *mardumxoʻr*, *mardumxoʻrlik* soʻzlari izohi ham oʻrin olgan⁶⁶.

Kom oʻzlashmasi eski oʻzbek tili leksikasiga oid lugʻatlarda quyidagicha izohlangan:

Kom – ogʻiz, tilak.

⁶³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 33.

⁶⁴ Фирдавс ул-иқбол. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи Ю.Брегель. – Лейден. 1988. – Б. 795. Мазкур асардан олинган бошқа мисоллар ҳам ушбу нашр асосида бўлиб, ФИ қисқартмаси билан берилди.

⁶⁵ Дўрж З. Бўзўртгарин кетобхона-йе шеър-е форси. Al-rams. www.mehrahgam.com

⁶⁶ Ўзбек тилининг изохли луғати. Тўртинчи том. 543-544.

Kom – 1. Murod, maqsad, orzu, tilak, mayl. 2. Baxt. 3. Etishish, noil boʻlish⁶⁷.

Bu soʻz avestoviy va qadimgi fors tilida “mayl”, “orzu” maʼnolarida *kâma* shaklida, sanskrit tilida xuddi shu maʼnoda *kâmak*, *kâm* shakllarida ishlatilgan⁶⁸. Uning qayd etilgan dastlabki maʼnosi (ogʻiz, tanglay) yangi fors tili (IX asrdan keyin)ga oid manbalardan boshlab koʻzga tashlanadi. Mulohazamizcha, har ikkala maʼno oʻrtasida umumiylik boʻlib, “mayl” semasi soʻzning “ogʻiz” maʼnosi yuzaga kelishi uchun asos boʻlgan. Uning oʻzbek tilida “iskanja” (*nadomat komi* birikmasidagi kabi) maʼnosi qadar kengayishi shunday mulohaza bildirishimizga asos boʻladi. Alisher Navoiyning mashhur qitʼasida *kom* soʻzining har ikkalasi maʼnosi asosida tajnis yaratilgan:

Jahon ganjigʻa shoh erur ajdaho
Ki, oʻtlar sochar qahri hangomida.
Aning *komi* birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho *komida*⁶⁹.

Koʻrinadiki, Alisher Navoiy nafaqat hassos shoir, balki ulugʻ tilshunos ekanini omonim soʻzlarni qoʻllash orqali ham namoyon qila olgan.

Bob yuzasidan quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin:

1. Ayrim omonimlar koʻp maʼnoli soʻzlar oʻrtasidagi mantiqiy jihatdan bogʻliqlik boʻlgan holda, “zanjir”ning uzilishi natijasida paydo boʻlishi mumkin. Bunday omonimlar etimologik jihatdan bir tilga mansub boʻladi. Bu jarayonda ularning grammatik xususiyati ham oʻzgarishi mumkin.

2. Oʻzqatlamda mavjud biror soʻz shakldosh oʻzlashma soʻz paydo boʻlishi natijasida ham omonimlar hosil boʻladi. Masalan, oʻzbekcha *yor* (yormoq, boʻlmoq) va forsiy *yor* (yor, doʻst, mahbub; mahbuba) soʻzlari kabi.

3. Har xil tildan oʻzlashgan soʻzlar omonim boʻlishi mumkin. Masalan, ruscha *sud* (davlat organi, sud) va forscha *sud* سود – foyda, manfaat.

4. Biror tildan bir soʻz oʻzlashadi, yana bir soʻz fonetik oʻzgarishga uchrab, shu soʻz bilan omonim boʻlib qoladi. Misol uchun arabcha *huzur* حضور hozir boʻlmoq va arabcha *huzur* حضور soʻzlari. Ikkinchi *huzur* “huzur-halovat” birikmasidagi aslida “haz” حظ soʻzining siniq koʻpligidir va u hozirgi oʻzbek adabiy tilida fonetik oʻzgarishga uchrab, omonim soʻzlar sirasiga kirgan.

⁶⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 122-123.

⁶⁸ Шамсиддин Муҳаммад бин Халаф Табризий. Бурҳони қотеъ. – Техрон: Амири Кабир. 1997. – Б. 1578.

⁶⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 500.

5. Oʻzqatlamda mavjud yoki oʻzlashgan soʻzga shaklan mos boʻlsa ham, urgʻuda farq qiluvchi soʻz boshqa biror tildan oʻzlashadi. *Atlas* **اطلس** (arabcha) – silliq atlas, ipak matoning bir turi, *atlas* (afsonaviy yunon pahlavoni Atlant nomidan) – atlas, maʼlum maqsadda tuzilgan kartalar toʻplami.

6. Ogahiy tilidagi omonimlarni kuzatar ekanmiz, hozirgi oʻzbek adabiy tili va eski oʻzbek tilidagi, boshqacha qilib aytganda, diaxron va sinxron tasnifning oʻxshash va farqli tomonlarini koʻramiz.

Ogahiy tilidagi (eski oʻzbek tilidagi deyish ham mumkin) omonimlarni sof omonimlar (harfiy ifodasi (shakli) va talaffuzi aynan bir xil soʻzlar); talaffuzi bir xil, harfiy ifodasi har xil boʻlgan omonimlar; imloda unlilar ifodasi va talaffuzida unlilarning choʻziq- qisqaligida maʼlum darajada farq qiladigan, baʼzi oʻrinlarda (masalan, vazn bilan bogʻliq hollarda) bu farq sezilmaydigan omonimlar; omograflar (harfiy ifodasi bir xil, talaffuzda farq qiladigan soʻzlar); omofonlar (shakli har xil, talaffuzida (undoshlar orasida) qisman farq mavjud soʻzlar); urgʻu oʻrniga koʻra farqlanadigan, lekin harfiy ifodasi bir xil soʻzlar kabi turlarga ajratish mumkin.

7. Mumtoz adiblarimiz shakldoshlikning turli koʻrinishlaridan foydalanib, tajnis, iyhom kabi badiiy sanʼatlarning goʻzal namunalarini yaratganlar.

II BOB. OGHIY TARIXIY ASARLARI LEKSIKASIDA SINONIMLAR

Ogahiy tarixiy asarlari sinonimiyasi g'oyat ko'lamli bo'lgani bois ularni mavzuviy guruhlar ostida birlashtirib tahlil qilish maqsadga muvofiq topildi.

2.1. Harbiy leksika oid birliklar sinonimiyasi. Eski o'zbek tilidagi harbiy terminlar tizimining ayrim jihatlari ushbu mavzuda maxsus tadqiqot olib borgan H.Dadaboyevga qadar A.Matg'oziyev⁷⁰, A.Ibrohimovalar⁷¹ tomonidan o'rganilgan. Eski o'zbek tilidagi harbiy terminlar lisoniy tadqiqi H.Dadaboyev tomonidan amalga bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasi, maqola va lug'atlarda aks etgan⁷². Ogahiy tarixiy asarlarida bu mavzu guruhida sinonim so'zlar ko'p ishlatilgan.

Jang tushunchasini ifodalovchi so'zlar qatori. Ogahiy tarixiy asarlarida *jang* tushunchasini anglatuvchi o'z qatlamga mansub *اوروش urush*, *يوروش yurush* so'zlaridan tashqari arab va fors tillaridan o'zlashgan quyidagi so'zlar qo'llanilgan:

Nabard *نبرد* so'zi. Bu so'z qadimgi eroniy tillarga mansub bo'lib, pahlaviy tilida *nipart* shaklida "jang", "nizo" ma'nolarini anglatgan. Bu so'zning tarixiy ildizi esa qadimgi eroniydagi *parat+ni* – "jang qilmoq" so'ziga borib taqaladi⁷³. Masalan,

Biri Ali – shohi shujo'u daler,

Razmu nabard arsasida narra sher. (JVS⁷⁴)

⁷⁰ Matg'oziev A. Xarbiy terminlar tarixiga doir // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1. – Б. 16-20.

⁷¹ Иброҳимова А. "Келурнома" луғатининг лексикасига оид кузатишлар. // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 118-119.

⁷² Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.; Общественно-политический и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. ; Дадабоев Х. Эски ўзбек тилида ҳарбий терминларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. №2. – Б. 31-37. ; Эски ўзбек тилида муҳофаа қурол-яроғларини ифодаловчи терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. №6. – Б. 15-18; Кўк турк хоқонлигида ҳарбий қурилиш // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2000. №2. – Б. 29.; Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. –Б. 21-24.

⁷³ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۴ ص ۲۱۱۵

⁷⁴ Шарқшунослик институти. Инв № 9786. 310 варак. Бундан кейин ЖВС.

Ushbu soʻz Alisher Navoiy asarlarida “urush”, “jang” maʼnolarida ham ishlatilgan boʻlib, shu oʻzak asosida *hamnabard* – “jangda birga boʻlgan, safdosh”; *nabardozmoy* – “jangchi”, “jangda sinalgan” soʻzlari shakllangan⁷⁵.

Razm رزم soʻzi ham tarixan eroniy tillarga aloqador boʻlib, ikki maʼnoda ishlatilishi qayd etilgan: 1. Jang, urush. 2. Oʻtin. Bu soʻzning “oʻtin” maʼnosi keng qoʻllanmasa ham, Xorazm nomining kelib chiqishi bilan bogʻliq bir toponimik rivoyatda koʻzga tashlanadi. Undagi talqinga koʻra *xor* “baliq”, *razm* “oʻtin” maʼnolarini beradi. Albatta, bu toponimik rivoyatda ilmiy asos yoʻq.

Ushbu soʻz mumtoz oʻzbek adiblari tilida “urush”, “jang”, “gʻavgʻo” maʼnolarida qoʻllangan boʻlib, u asosida *razm aylamak* – urushmoq, *razm tuzmak* – urush chiqarmoq, urushmoq, *razm solmoq* – urush ochmoq qoʻshma feʼllari shakllangan⁷⁶. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi *razm solmoq*, *razm solib qaramoq* feʼllari *razm* soʻzining asl lugʻaviy maʼnosi anglashilmasligi natijasida “diqqat bilan qaramoq”, “eʼtibor bilan koʻzdan kechirmoq” mazmunini kasb etgan. Agar *razm solmoq* feʼlining bugungi maʼnosini eʼtiborga olib, uni *maʼraka* soʻzi bilan solishtirsak, maʼno koʻchish yoʻsinida mantiqiy umumiylik koʻzga tashlanadi.

Razm oʻzbek tiliga “jang” mazmunida oʻzlashganiga qaramay, uning asl lugʻaviy mazmuni “saf”, “qator”dir. Ehtimol, *razm solmoq* feʼlida shu mazmun taʼsiri boʻlishi – “qayta-qayta qaramoq” mazmuni ushbu asosda shakllangan boʻlishi mumkin. Bu soʻzning qadimgi forsiydagi shakli *razma* boʻlib, “qator”, “jangchilar safi” mazmunini anglatgan va umumeroniy *reg*, sanskritdagi “qator”, “saf” maʼnolaridagi *raji* soʻzlari bilan oʻzakdoshdur⁷⁷.

Ogahiyda forsiy qatlamga mansub “jang” mazmunini anglatuvchi soʻzlardan yana biri *korzordir*. Tarkiban bu soʻz *kor* (ish) va *zor* (oʻrin-joy yasovchi affiks) qismlaridan iborat boʻlib koʻrinsa ham, aslida qadimgi fors tilida “sipoh”, “jangchi” maʼnolarida ishlatilgan *kârâ* oʻzagiga aloqador⁷⁸. Ikkinchi qism esa

⁷⁵ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.443.

⁷⁶ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.520.

⁷⁷ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ . ص ۹۴۵

⁷⁸ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۳ . ص ۱۵۶۰

haqiqatan *zar* bo‘lib, *kârizar* so‘zi pahlaviy tilida *karejâr* shaklida ishlatilgan. O‘rin-joy ma‘nosini anglatuvchi *zar* komponentining *jâr*, *sâr* shakllarida ishlatilganini “bozor” so‘zining pahlaviyda *wâcâr* shaklida bo‘lganiga qiyoslashimiz ham mumkin. Haqiqatan ham, bu so‘z pahlaviy tilida *kârizar*, *kâricâr* shaklini ham olgan. Lekin ta‘kidlash kerakki, “sipoh” ma‘nosidagi *kârâni* “ish” mazmunidagi *kârga* begona deb bo‘lmaydi. Sababi, bu so‘z aynan *kârning* “jang” mazmunidagi ko‘chma ma‘nosiga “a” qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan. Chunki “ish”ning “ishkal”; “janjal” ma‘nolari o‘zbek tilida ham yo‘q emas. Masalan, “Yana bir ish (janjal) chiqardi”.

Qo‘shin mazmunli so‘zlar sinonimiyasi. Qo‘shin va uning tarkibiy qismlarini ifodalovchi so‘zlarni ham shartli ravishda harbiy amaliyot terminlari sirasiga kiritish mumkin. Asarda qo‘shin va uning qismlarini ifodalovchi o‘z qatlamga mansub *qoshun* hamda qadimgi turkiy tilga ancha oldin o‘zlashgan *cherik* o‘zlashmasidan tashqari tarixan arab va fors tillariga oid *lashkar*, *navkar*, *sipah* so‘zlari ham ishlatilgan.

Lashkar tarixiy harbiy termin sifatida “qo‘shin, sipoh” ma‘nolarini anglatadi⁷⁹. *Lashkar* termini umumeroniy so‘z bo‘lib, ayrim eronshunoslar fikricha, *askar* so‘zi uning arabiydashgan shaklidir. Eron olimi Anjumoroy Nosiriy lashkarni “qit’a”, “bo‘lak” ma‘nosidagi “lashk”dan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Lekin bu tahlil oxirgi harf (r)ning qanday paydo bo‘lganligini izohlay olmaydi. I.Purdovud mazkur so‘zni avestoviy *rataeshtra* va pahlaviy *artishtar* (jangchi) bilan bog‘liq hisoblaydi⁸⁰. Bu esa terminning shakliy va ma‘noviy ildizini to‘g‘ri asoslaydi, deb hisoblaymiz. Bugungi Eron harbiy tizimida bir lashkar bir necha (odatda to‘rtta) hang (otryad)dan tuziladi⁸¹.

Sipoh so‘zining fors tilida ham, o‘zbek tilining tarixiy leksikasida ham *sipah*, *ispah* shakllari uchraydi. Jumladan, “barcha *sipohi* zafardastgoh tong otg‘uncha ot va yarog‘ va asbobi harb va qitol asbobining istikmolig‘a sa‘yi mashkur va ko‘shishi g‘ayri mahsur bila ishtig‘ol ko‘rguzdilar” yoki

⁷⁹ Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. — Тошкент: Университет, 2003. — Б. 72.

⁸⁰ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۱ ص ۲۲۸

⁸¹ Пурдовуд Иброҳим. Хурда Авесто. Аз силсилаи энтэшоротэ зардуштийонэ Ирон ва Бомбей. 1340 х.с. 97.

Ko'rguzib g'ayrat *sipah* ahli tamom,

Oldilar qatl aylamakdin borchu kom.

Fors tilida uning yana *isbah* shakli ham uchraydi. Mazkur so'z qadimgi fors tilida *spâda*, avestoviyda *spâdha* shaklida bo'lib, pahlaviy tilida *spâh* ko'rinishini olgan⁸². So'zning shaklida o'zaro farqlar mavjud bo'lsa ham, uning lug'aviy ma'nosi deyarli o'zgarmagan. Bu so'z Eronning hozirgi harbiy tizimida muayyan ma'no – bir necha *lashkarni* o'z ichiga oluvchi birlikni anglatadi⁸³.

Ogahiyda sanoqsiz askar, lashkarning ko'pligi “sipohi falak ishtiboh” birikmasi orqali ifodalangan o'rnlarni ko'plab uchratamiz.

Sipar, sovut so'zlari.

Sipar – qalqon⁸⁴:

Birov yetkurubon *siparg'a* jilo,

Birov xudm oyinasiga safo. (23^a).

Javshan – forscha “sovut”, “zirih”⁸⁵:

Birov *javshanig'a*, namoyish berib,

Birov chorqabg'a kushoyish berib. (23^a).

Sinon, nayza so'zlari. *Sinon* arab tilida “nayza” degan ma'noni anglatadi va asarda ham shu ma'noda ishlatilgan⁸⁶:

Birovga ititmak ish o'ldi *sinon*,

Ki o'tgay aduv sinasidin ravon. (23^a).

Shuningdek, JVSda turkiy *nayza* atamasi ham qo'llanilgan. Masalan, “Ikki tarafdin qilichu *nayza* iste'molig'a ishtig'ol ko'rguzdilar”. (51^b).

Mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi so'zlar sinonimiyasi. Mumtoz o'zbek adiblari, jumladan, Ogahiyning tarixiy asarlari tilida “monarx” tushunchasini ifodalovchi bir qancha so'zlar mavjud bo'lib, ular asar yozilgan yoki voqealari bayon qilinayotgan davr, muallifning xos uslubi va

⁸² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ . ص ۱۰۸۷

⁸³ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ . ص ۱۰۸۷

⁸⁴ Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.561; Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б.

⁸⁵ Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 216.

⁸⁶ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б.

boshqa jihatlarni e'tiborga olgan holda bir-biriga ma'nodosh sifatida, ayrim o'rinlarda esa farqlangan holda ishlatilgan. Xususan, Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida mazkur tushunchani ifodalovchi *xon*, *xoqon*, *qaysar*, *shoh*, *shahriyor*, *podshoh*, *xusrav*, *sulton*, *hokim*, *amir*, *voliy*, *kadxudo* kabi tarixiy so'zlar ishlatilganini ko'ramiz.

Xon خان so'zi. *Xon*, podshoh⁸⁷. Qadimgi turkiy tilda *qag'an* bo'lib, eski o'zbek tilida *xon* shaklini olgan ushbu so'zning qo'llanish doirasi hamda ma'nolari ko'lam ancha kengaygan. Jumladan, Ogahiyning tarixiy asarlarida uning quyidagi ma'nolarini uchratamiz:

1. Davlat boshqaruvi xonlik bo'lgan mamlakat hukmdori⁸⁸. Xiva xonlari unvoni rasman va xalq orasida *xon* so'zi bilan atalganligi tarixiy, badiiy asarlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ma'lum. Lekin "Riyoziy ud-davla"⁸⁹ o'ziga xos uslubga ko'ra, bu so'zning monarx tushunchasini ifodalovchi boshqa so'zlarga nisbatan kam qo'llanganini kuzatamiz. Shuningdek, asarda Xiva xonlariga nisbatan *xoqon* so'zi ham qo'llanilgan: ...*xoni* jannatmakonning fotihaxonlig'i va hazrati a'lo *xoqon*ning julusi muborakbodlig'i uchun tuhfoi loyiq va tansuqoti muvofiq bila izlik-izidin elchilar kelib... (RD, 255^b).

2. *Xon* so'zi Ogahiy tarixiy asarlarida, asosan, ulus (viloyat) boshliqlari ma'nosini ham ifodalaganini e'tiborga olishimiz kerak⁹⁰. Masalan, Ul mavze'da Saraxs ulusining *xonlar* kim, biri Odina qurt va biri Xolnazar otlig' erdi va ul ikkovi ondoq muvofiq va barobar erdilar... (RD, 257^b).

Xoqon خاقان so'zi asarda, yuqorida ta'kidlanganidek, asosan, *xon* so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatilgan: ...hazrati a'lo *xoqoni* karamnishon otalig' mansabi oliysin marhamat qilib, ashboh va akfosidin mumtoz va sarafroz qildi. (RD, 264^a). Xuddi shu sahifada Munis qalamiga mansub ta'rix

⁸⁷ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// тюркология. — 1989. — №1. — С.64.

⁸⁸ Чориев З. Тарих атамаларининг изохли луғати. — Тошкент: Шарк, 1999. — Б. 103.

⁸⁹ رياض الدولة ЎЗР ФА Шарқшунослик институти. 5364 / II. 246^a-364^a варақлар. Бундан кейин РД.

⁹⁰ Чориев З. Кўрсатилган асар. — Б. 103.

keltirigan bo‘lib, unda *xoqon* so‘zi muayyan ma’no – Xitoy imperatori mazmunini ifodalagan⁹¹:

Sikandardek jahongir aylab oni,

Muti’i hukmi qil *xoqonu* qaysar. (RD, 264^a.)

Qaysar قیصر so‘zi mumtoz adiblarimiz tilida muayyan ma’noda, ya’ni Rim yoki Vizantiya imperiyasi imperatori mazmunlarida qo‘llanilgan⁹².

Shoh شاه so‘zi Ogahiy tarixiy asarlari davomida quyidagi ma’nolarda ishlatilgan:

1. *Xonning* sinonimi:

Davlatu iqbol anisi edi,

SHohi falakjohning inisi edi. (RD, 256^a).

2. Davlat tizimi shohlik bo‘lgan davlat boshlig‘i, ya’ni Eron shohi ma’nosida muayyan mazmunda: Eron mamolikining podshohi farmonravosi Fathalishoh Qochorkim, Boboxon *shohg‘a* mashhur erdi, ul jamoaning dushmani qadimi erdi. (RD, 269^a). Ta’kidlash zarurki, Ogahiy tarixiy asarlarida ushbu so‘z shaxs ismiga qo‘shilib kelgan hollarda rasmiy unvon mazmuni kasb etadi. Masalan, *Fathalishoh*.

3. Vassal viloyat hokimi: Davlati olampanohning jonsipor xizmatkorlaridan jalodattov’am Hasanmurod mahramini Hirot viloyatining podshohi jalodat dastgohi, sohibul-farmon *shoh* Komrong‘akim, barcha avqot musodiqat va muvofiqot urvatulvushqosig‘a xayrixohlig‘ rasmin ilgari tutar erdi, irsol qildi. (RD, 255^a). Ko‘rinadiki, bu holda *shoh* so‘zi shaxs ismidan oldin qo‘llaniladi. Bu tarzda ma’no farqlanishini *mirzo* so‘zining qo‘llanishida ham kuzatamiz. SHuni ham ta’kidlash lozimki, arab istilosidan keyin Eron monarxlarida shoh unvoni taomildan chiqadi va saljuqiylardan Malikshoh davridan boshlab yana qo‘llanila boshlagan. Barcha vakillari ismi tarkibida *shoh* unvoni bo‘lgan birinchi sulola safaviylar edi. Ularda shoh unvoni ism oldidan kelgan: *Shohismoil*, *Shohabbos* kabi.

⁹¹ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . Al-rams. www.mehrahgam.com. ج ۳.

⁹² Yeğin Abdullah. Yeni Lûgat. – Istanbul: Hizmet Vakfı Yayınları, 1992. – S.325.

Sharq tarixining uzoq davrlaridan yaqin o'tmishgacha *shoh, shahanshoh* Eron shohlarining unvonini ifodalasa ham, ko'pgina tarixiy, badiiy asarlarda *shoh, xon, sulton, amir* (bu so'z nisbatan farqlanadi) so'zlari o'rtasida muayyan istilohiy farqni ko'rmaymiz. Jumladan, Ogahiy tarixiy asarlarida *shahanshoh* so'zi Xiva xoniga nisbatan ehtirom, ta'zim, madh ifodasi sifatida qo'llanilgan. Masalan, ...hazrati *shahanshohi* falakjohning dargohi olam panohiga yibormish erdikim, "Qizilbosh ahlining din va oyinin tark etib, musulmonlig' davlati iqboliga etkumdurur". (RD, 261^b).

Bundan tashqari, Ogahiy asarlari leksikasida yuqoridagilarga sinonim sifatida *xusrav* // *xisrav* **خسرو** so'zi ham uchraydi, shuningdek, unga o'zakdosh *xusravona, xusravoniy* so'zlari ham faol ishlatilgan. *Xusrav* so'zi pahlaviy *husrūv* ("yaxshi nom" ma'nosida, *xusrav* shakli ham bor), "Avesto"da *husravah*, sanskritda *sushravas*, o'rta fors tilida *xosrau* shakllarida bo'lgan⁹³.

Shahriyor **شهریار** so'zi ham mumtoz adiblarimiz tilida "podshoh" ma'nosida ishlatilgan⁹⁴. Ogahiy tarixiy asarlarida mazkur so'z ko'p hollarda *xonning* sinonimi sifatida keladi: Xorazm mamolikining *shahriyori* sohib ixtiyori...; *shahriyori* Iskandarshavkat... (RD, 264^a).

Podshoh **پادشاه**. Eroniy qatlamga mansub ushbu so'z *monarx* tushunchani ifodalashda mumtoz adiblarimiz tilida keng qo'llanilgan. *Podshoh* so'zi Ogahiy tarixiy asarlarida *monarx* tushunchasini umumlashtirgan holatda ifodalagan.

Sulton **سلطان** so'zi tariximizning turli davrlarida turlicha mazmun kasb etib kelgan: 1. X asrlarda musulmon mamlakatlarida hukmdor *sulton* deyilgan. XI asrda saljuqiylardan boshlab bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya bo'lgan ba'zi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Bruney sultoni. 2. Mo'g'ul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar sulton deb yuritilgan⁹⁵.

⁹³ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ . ص ۷۴۸ .

⁹⁴ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی . لغت نامه . Al-rans . www . mehrahgam . com . درج ۳ .

⁹⁵ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.

Hokim حاكم . Ushbu soʻz Ogahiy tarixiy asarlari davomida quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1. Viloyat, maʼmuriy hudud hokimi⁹⁶: Ul yerda Marv viloyatining *hokimi*... (RD, 257^b); Saraxs oʻlkasining *hokimi* Odina Qurtxon bu bechora va notavonlarning minnatini koʻtarib... (RD, 259^b).

2. Qalʼa, shahar yoki qoʻrgʻon hokimi⁹⁷: Va lekin Hasanali mirzokim, Mashhad shahrining *hokimi* farmonravosi erdi... (RD, 260^b); chun ul hazrat saltanat lavozimi va mamlakat zavobiti ishtigʻolidin, filjumla, farogʻ hosil qildi, atrof va aknofdagʻi qiloʻ va bilod *hokimlari*... (RD, 255^a); Daragaz qoʻrgʻonining *hokimi* oliyshoni Beklarxon... (RD, 261^b).

3. Ogahiy tarixiy asarlarining baʼzi oʻrinlarida bu soʻz mamlakat hukmdoriga nisbatan ham ishlatiladi: ...chun Buxoro *hokimining* ul noloyiq atvori ul hazratniig zamiri futuvzatosoriga muvofiq tushmay... (RD, 298^b).

Amir امير soʻzi quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1. Podshoh, hukmdor⁹⁸, yaʼni boshqaruv tuzumi amirlik (amorat) boʻlgan davlat boshligʻi: ...chun ul hazrat koʻrdikim, *amir* Haydar xizmatigʻa borurgʻa ruxsat berib yibordi. (RD, 255^b).

2. Xiva xonligida *amir* “amirulumaro” kabi saroy faxriy unvonlaridan biri hisoblangan⁹⁹. Quyidagi parchada bu soʻzning Shohniyoz otaliqqa nisbatan ishlatilishi ham uning faxriy unvon boʻlganligidan darak beradi: *amiri* benaziri ravshanzamiri soyibtadbir Shohniyoz otaliq navvara marqadahu كُلُّ نَفْسٍ ذَائِقَةُ الْمَوْتِ “kullu nafsin zaaiqatu-l-mavti”¹⁰⁰ jomidin ajal sahbosin oshom qilib...(RD, 264^a). Bunday amirlar ichidan yoshi ulugʻi yoki mavqei baland boʻlgani *amiri kabir* امير كبير – ulugʻ amir hisoblangan: *amiri kabiri* ravshanzamir Muhammad Nazarbiy inoq boshligʻ umaroyi jalodatosor va ulamoyi fatonatshior va vaziʼ sharif shahrdin

⁹⁶ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. Al-rams. www. mehrahgam. com.

⁹⁷ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. Al-rams. www. mehrahgam. com.

⁹⁸ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. I жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 85.

⁹⁹ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// тюркология. – 1989. – №1. – С.66.

¹⁰⁰ “Оли Имрон” сураси 185-оятининг бир қисми. “Хар бир жон ўлим (аччиғи)ни тотувчидир”. Курьони Карим маъноларининг таржимаси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. –Б.74.

istiqlolga chiqib, diydai intizorlarin summi sutur g'uboridin ravshan va qomati e'tiborlarin ta'zim hulali bila muzayyan qildilar. (RD, 278^a).

Voliy والى – hukmdor, podshoh. So'zning bu mazmuniga *valiya* وليّ fe'lining *egallik qilmoq* ma'nosi asos bo'lgan. *Voliy* ana shu fe'lining aniq nisbat sifatlashidir. Tarixiy asarlarda *voliy* so'zining quyidagi ma'nolarda ishlatilganini ko'ramiz: 1. Viloyat hokimi. 2. Mamlakat hukmdori. 3. XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin yaratilgan forsiy manbalarda general-gubernator¹⁰¹ ma'nosida. *Voliy* so'zining sinik ko'plik shakli *vullot* ولات yoki ولاية dir. Bu so'zni Ahmad Donishning "Ta'rixcha" asarida ham uchratishimiz mumkin: ...hama hukkom va *vulloti* diyori Turkiston" – Turkiston diyorining barcha hokim va voliylari¹⁰².

Ogahiy tarixiy asarlarida *voliy* so'zi *podshoh*, *amir* so'zlariga sinonim sifatida qo'llangan: ...ul jumladin Buxoro *voliysi amir* Nasrullo valadi Mir Haydar *podshoh*kim, Bahodirxong'a mashhurdurur, aboanjad bu xonadoni davlatnishop xusumatida sobitqadamu rosixdam erdi. (RD, 357^b).

Xorazmshoh خوارزمشاه so'zini ham ushbu guruhga kiritish mumkin. Tarixan bu so'z Xorazmshohlar sulolasidan shohlik qilgan shaxslargagina nisbatan ishlatilgan bo'lsa ham¹⁰³, Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlarida ayrim o'rinlarda Xiva xonlarining faxriy unvoni ma'nosida qo'llanilgan: ...muvofoqat ishida turub hazrati *xorazmshoh* farmoni ravishidin inhirof joyiz tutmoq va mufsidlar tarafin tutub, alarg'a yorlug' ko'rguzmak itoat binosig'a rahna solmoq va bo'ynungga inod va fasod badnomlig'in olmoqdurur. (RD, 290^b).

Ogahiy tarixiy asarlarida *kadxudo* so'zi *podshoh* ma'nosida ishlatilgan ayrim o'rinlar ham bor:

Kelib loyiq anga kishvarkusholig',

Jahon mulkiga yaksar *kadxudolig'*. (JVS, 14^a)

Bu so'zning *podshoh* ma'nosini Navoiy asarlari tilida ham uchratamiz:

Yana bo'ldi Kayxusravi pok roy,

¹⁰¹ Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 692.

¹⁰² Аҳмади Дониш. Асарҳои мунтахаб. – Сталинобод: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1952. – С.34.

¹⁰³ Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар тарихи. – Тошкент, 1998.

Jahon ahlig'a roy ila *kadxudoy*¹⁰⁴.

Imperatur so'zi asar davomida bir o'rinda qo'llanilgan: bu yil rajab oyining uchida shanba kuni O'rus poytaxti Fetirburx podshohi *imperatur* binni Nikuloy Povlufichning qo'shg'an elchisi Prukufiy Andriich binni Nikiqirusining hamrohlig'i bila kelub... (RD, 354^b).

Xadiv // *xadev* خديو so'zi dastlab yagona; ega, sohib ma'nolarini bildirgan va keyinchalik *ulug' podshoh* ma'nosini kasb etgan¹⁰⁵: Ul janob o'z tarafidin To'rabek qiyotni qo'shub hazrati *xadivi* behamoli mag'firatmaolning xizmatig'a yo'lladi. (RD, 282^b).

Quyidagi parchada "monarx" tushunchasini ifodalovchi bir necha so'z va birikmalar Olloqulixon madhida ishlatilgan: ...*shahanshohi* islompanoh, *sultoni* zarrinalam, *xoqoni* gardunhasham, *shahriyori* Iskandarshavkat, *tojdori* Sulaymonsavlat, *xadivi* gardunviqor, *xusravi* Fariduniqtidor, *zubdai* *salotini* olam, *um dai xavoqini* muazzam, murtaqiyi madoriji islom, murtafe'i maoriji ahkom... Abulg'ozil Olloquli Muhammad Bahodirxon...(RD, 264^a). Arxiv hujjatlari xonga yozma murojaatda xuddi shunday dabdabali uslub ishlatilganidan guvohlik beradi. Masalan, 1285/1868 yilga mansub hujjatdan: Amorat ayvonining masnadrishini, ayolat devonining sohibnigini, umdat ul-umaro va murabbiy ul-fuqaro, guli gulshani adolat, chamani bog'i latofat, jahonboni davron, xusravi sohibqiron, xalifat ur-rahmon, vorisi mulki Sulaymon, bois ul-amnu va-l-amon, xoqoni xavoqini kirom, shohonshohi gardunihtishom, zilliloh, a'no...¹⁰⁶ Bunday uslubda bitilgan hujjatlarga yana ko'plab misollar keltirish mumkin¹⁰⁷.

Jangchi mazmunli so'zlar sinonimiyasi. *Navkar* نوكر – jangchi, soldat¹⁰⁸: ...o'z *navkar*larin boshlab va vahmu haros dag'dag'asin ko'ngullaridan tashlab... (RD, 281^b). Asar davomida jangchi, navkar ma'nosida yana quyidagi so'zlar ham ishlatilgan:

¹⁰⁴ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 11-том. – Тошкент: Фан. 1996. – Б.78.

¹⁰⁵ Ҳофиз Убахи. Тухфат-ул-аҳбоб. Ҳозиркуандаи нашр Ҳ.Рауфзода. – Душанбе: Ирфон, 1992. –С.195.

¹⁰⁶ ЎЗР Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №221, В. 1.

¹⁰⁷ ЎЗР Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №221, В. 2,3,4,5,7.

¹⁰⁸ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Тюркология. – 1989. – №1. – С. 67.

Sarboz سربازsors tilida aynan “bosh tikkan” ma’nosi beradi. Abbos mirzoning o‘n ikkn ming *sarboz*... bila Mashhadg‘a kelganidin yamroli Mulla Subhonnazar otlig‘ bir kishi bila darbori falakmiqdor navvobig‘a ixbor qildi. (RD).

Yigit يىگیتso‘zining “navkar” ma’nosi hozirgi o‘zbek tilida ham uchraydi: “Xolxo‘jaga *yigit* bo‘lganing esingdan chiqdimi?” (S.Ahmad. “Ufq”)¹⁰⁹. Barcha o‘zbek va yamroli *yigitlari*... ozim bo‘ldilar. (RD).

Muqotil, mujohid, g‘oziy diniy tus berilgan urush qatnashchilariga nisbatan ishlatilgan. Chunki teokratik mutlaq monarxiyaga asoslangan Eron shohligi Xiva, Qo‘qon xonliklari, Buxoro amirligi o‘zlarining harbiy harakatlariga mumkin qadar diniy tus berishga, uni “jihad” deb baholashga intilganlar. Hazrati sohibqironi kishvarsiton mulozamat mavqe’ida turg‘on *g‘oziy*lardan shijoat maydonining yakkatozi Muhammadquli yuzboshiga ishorat qildi. (RD, 274^a).; Yo‘lo‘tanda o‘lturg‘an solur xalqidin ba’zi *mujohid* yigitlar...; ... oti o‘lg‘on va zaxmdor bo‘lg‘on *muborizlarga* dog‘i ehsoni farovon va baxshishi bekaron bila bahramand va arjumandlig‘lar etkurdi. (RD, 261^b).

Bahodir بهادر – jangchi, askar: jami’i ko‘klon va qarodoshluning dilovari mardafkan va *bahodiri* safshikanlari bila kelib... (RD, 267^b).

2.2. Diplomatiyaga oid ijtimoiy-siyosiy leksikada sinonimiya.

Elchi, rasul, safir; elchilik, risolat, saforat so‘zlari. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi diplomatiyaga oid so‘zlardan biri *elchi* ایلچی bugungi kundagidek davlatlar orasida diplomatik munosabatlar olib boruvchi shaxs ma’nosini anglatadi: ...*elchilar* bir muddat hamul maskanda tavaqquf qildilar... (RD, 280^b). Diplomatik faoliyat esa *elchilik* va uning arabchasi *siforat* سفارت so‘zlari bilan ifodalangan: ...chun *sufaroyi* komil hamul mazmung‘a homil bo‘lub, *siforat* yo‘lig‘a azimat qilib, soruqlar qo‘rg‘onig‘a yaqin ettilar (RD, 293^a). Parchada tilga olingan *sufaro* سفار so‘zi *safir* سفیر – elchi so‘zining siniq ko‘plik shaklidir¹¹⁰. Ogahiy ba’zi o‘rinlarda arabcha *rasul* رسول (ko‘plik shakli *rusul* رسل)ni ham *elchi*

¹⁰⁹ Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С. 7.

¹¹⁰ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. Al-rams. www.mehrahgam.com. درج ۳.

ma'nosida ishlatganini ko'ramiz. Ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi uning *elchi* so'ziga ma'nodosh sifatida qo'llashga monelik qilmaydi: Turbat hokimi Muhammadxon Qaroyi valadi Isoxon Qaroyikim, qaroyi elining sardor va farmonravoyi erdi, anga dog'i bir kordon *rasule* inoyat yuzidin irsol qildi. (RD, 261^b). Ushbu parchada Ogahiy *rasul* va *irsol qildi* so'zlari orqali ishtiqoq san'atini yuzaga keltirmoqda. Bu esa Ogahiy badiiy vositalarni qo'llash maqsadida ham ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub so'zlarning ma'nodoshlaridan unumli foydalanganidan dalolat beradi. *Rasul* (elchi) va *irsol* (yuborish) so'zlari orqali ishtiqoq hosil qilingan o'rinlarni Navoiy ijodida ham ko'ramiz. Farqi – quyidagi misolda *rasul* so'zi urfiy ma'noda (payg'ambar ma'nosida) qo'llangan:

Hamd angakim, kalomi xayrul-maol

Qildi elga *rasulidin irsol*¹¹¹.

Umuman, Navoiy asarlarida *rasul*ning diplomatikaga oid atama sifatida ishlatilganini ham kuzatamiz. Masalan, “Lisonut-tayr”dagi “Iskandarning elchilikka borg'on hikoyati” bobida o'qiymiz:

Bordi ul kishvarg'akim borg'ay *rasul*,

Ayladi onda *rasulona nuzul*¹¹².

2.3. Ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy leksikada sinonimiya. Tilshunosligimizda XI – XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy so'zlar maxsus tadqiq qilingan¹¹³. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq so'zlar tadqiq qilingan davr yozma yodgorliklari tilidan keskin bo'lmasa ham farq qiladi. Ogahiy tarixiy asarlarida ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq quyidagi so'zlar uchraydi:

Mamlakat – مملکت davlat, mamlakat:

Qasdi edi *mamlakat* oroyishi,

Komi edi xalqning osoyishi. (RD, 256^a).

¹¹¹ Алишер Навоий. Арбаъин. – Тошкент: Наврӯз, 1994. – Б. 5.

¹¹² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 93.

¹¹³ Дадабаев Х. Наименование единиц административно территориального деления в старотюркских памятниках XI-XIV вв // Адабий мерос.– №53. 1990.. – С. 36-43.

Ushbu soʻz solnomalar davomida ayrim oʻrinlarda *viloyat* maʼnosida ham ishlatilgan: ... yakshanba kuni ul hazrat livoyi nusrathavoni Hazorasb *mamlakat*idin mutaharrik va shuqqakusho qilib... (288^a). Shuningdek, *mulk* ملك va *davlat* دولت soʻzlari ham mamlakat soʻzining sinonimi sifatida ishlatilgan:

Qilib tadbiru koʻshish ehtimomin,

Tuzatdi *mulku davlat* intizomin. (RD, 255^b).

Asardan joy olgan quyidagi parchada *vatan* وطن soʻzi ham umumisteʼmoldagi maʼnosi, ham maʼmuriy birlik ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy soʻz sifatida ishlatilgan:

Kishikim, yamonligʻ erur shevasi,

Kelur har nafas boshiga yuz balo.

Jaloyi *vatan* aylab ani falak

Qilur gʻurbat anduhiga muhtalo. (RD, 277^a).

Asardagi ushbu parcha mansub matn mazmuni “vatandan judo boʻlish”¹¹⁴ mazmunidagi *jaloyi vatan* birikmasini “mamlakatdan badargʻa qilinish” maʼnolarida ham tushunishni taqazo qiladi.

Davlat, mamlakat maʼnolarini ifodalovchi soʻzlardan yana biri *ayolat* ايالت dir. Hozirgi kunda arab va fors tillarida¹¹⁵ *shtat* (bu soʻzning inglizchasi *state* “davlat” maʼnosini beradi) mazmunini ifodalovchi bu soʻz Ogahiy va boshqa oʻzbek adiblari tilida mamlakat, davlat maʼnolarini anglatgan. “Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”da ushbu soʻzning *iyolat* shakli ham borligi qayd etilgan¹¹⁶. Ogahiy tilida ham bu soʻz mamlakat maʼnosida koʻzga tashlanadi: ...Boboxon shoh *ayolat* taxtida mutamakkin boʻldi.

Viloyat ولاية 1. Viloyat, mamlakatning maʼlum maʼmuriy boʻlagi, boshqaruv tizimi bevosita xonlik ixtiyorida boʻlgan hudud: ...Muhammad Solih shayxni Marv *viloyatigʻa* nomzad qildi. (RD, 255^a); kavkabai podshohiy va dabdabayi nomutanohiy bila Hazorasb *viloyatigʻa* vorid boʻlub... (RD, 266^b).

¹¹⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.559.

¹¹⁵ Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 147.

¹¹⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б. 45.

Ogahiy tarixiy asarlarida *ulus* اولوس soʻzi *viloyat*ning, ayrim oʻrinlarda *mamlakat*ning sinonimi sifatida ham ishlatilgan: Mazkur boʻlgʻon *ulus* (Dashti qipchoq)ning hokimi farmonravosi erdi. (RD, 266^b). Shuningdek, bu soʻzning *fuqaro; aholi* maʼnosida ham ishlatilganini kuzatamiz:

Savlatidin larza er arkonigʻa,

Haybatidin ruʻsha *ulus* jonigʻa. (RD, 256^a).

Chun shohzodai muallomakon Oqdarband *ulusin* koʻchurub, Saraxs jonibigʻa ravon qildi. (RD, 260^a).

Viloyat mazmunidagi maʼmuriy birlik ifodalovchi soʻzlarning yana biri *muzofot* مضافاتdir. Ushbu soʻzning ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansublik kasb qilishiga “qoʻshimcha”, “qoʻshib olingan” tarzidagi lugʻaviy maʼnosi asos boʻlgan¹¹⁷. Demakki, dastlab mamlakatning asosiy hududiga qoʻshib olingan erlar *muzofot* deb atalgan va keyinchalik maʼno kengayishi mazkur soʻzning maʼmuriy birlik mazmuniga olib kelgan: Saraxs *muzofotidindurur*, sipohi nusratpanoh kunjoyishiga loyiq arz va umqi koʻngul xohishigʻa muvofiq bir sangari vusʼat asar hafr qildurubdurur. (RD, 261^b).

2. Ogahiyda mazkur soʻz baʼzi oʻrinlarda qoʻshni oʻzbek xonliklariga nisbatan *mamlakat*ning maʼnodoshi sifatida ishlatiladi: ...ul *viloyat* (Buxoro) hokimi Bahodirxon... (RD, 291^a). *Viloyat* soʻzi XI asrdayoq “Qutadgʻu bilik”da *mamlakat, davlat* maʼnosida ishlatilgan¹¹⁸.

Tuman تومان soʻzi mamlakatning bir maʼmuriy boʻlagi, hudud nuqtai nazaridan hozirgi vaqtdagi tumanga teng maʼmuriy birlik. *Tobeʻ* تابع esa mamlakatga qaram qilingan hududlar maʼnosini beradi va uning koʻplik shakli *tavobeʻotdir*. *Tuman* soʻzining koʻplik shakli *tumanot* tarzida ishlatilgan: Toʻqquz oydin soʻng oning inisi Bahodirxonkim, Buxoro *tumonotidin* bir *tumanda* hokim erdi, atrofigʻa lashkar jamʼ qilib va Buxoro *tavobeʻotin* dagʻi tahti hukumatigʻa kirguzub, koʻb cherik bila kelib Buxoro shahrin qabodi. (RD, 278^b).

¹¹⁷ Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 523.

¹¹⁸ Дадабаев Х. Наименование единиц административно территориального деления в старотюркских памятниках XI-XIV вв // Адабий мерос. 1990. – №53. – С. 39.

Yurt يورت so‘zi esa *mamlakat* ma’nosini berishi turkiy tillarning ko‘pchiligiga xosdir. Buni Ogahiy tilida ham kuzatamiz: ...Umarxonni *yurtdin* ixroj qilib, Xo‘qand viloyatig‘a yubordi (RD, 278^b)¹¹⁹. Xorazm yodnomalarida bu so‘z *yurt*; *aholi yashaydigan joy*; *vatan* ma’nolarida qayd etilgan¹²⁰. Ushbu ma’nolar Ogahiy tarixiy asarlari leksikasiga ham xos: ...Xorazm mamolikiining bir tarafidin er va *yurt* tiladilar. (RD, 279^b).

Shahr شهر – shahar. XIX asrda ham shaharlar atrofi mudofaa devorlari bilan o‘ralgani uchun *qal’a* va *shahar* so‘zlari qo‘llanishida deyarli farq bo‘lmagan: ...kamolud-davla vaddunyo Muhammadnazar inoqkim, Xivaq *shahr*ida nayobat tariqasi bila qolib erdi... (RD, 276^b).

Qal’a قلعه va *balda* بلده (o‘lka) so‘zlari ham shu turdagi so‘zlardan hisoblanadi. Ogahiy tarixiy asarlarida ularning ko‘plik shakllari *qilo’* قلاع va *bilod* بلاد ham ishlatilgan: ...atrof va aknofdag‘i *qilo’* va *bilod* hokimlari... (RD, 255^b). *Qilo’* *qal’*aning siniq ko‘pligi bo‘lsa, to‘g‘ri ko‘pligi eski o‘zbek tilida *qal’ajot* shaklida ishlatilgan: Jom julgasining *qal’ajotidin* Umg‘on otlig‘ *qal’akim*, qizilbosh xaylining maskani va irtidod ahlining ma’mani erdi... (RD, 273^a). Ularga sinonim sifatida *kent* كينت so‘zi ham ishlatilgan:

To‘ldi bori *kentu* dashtu sahro,

Etti unidin falakka g‘avg‘o. (RD, 256^b).

Ogahiy tarixiy asarlarida *diyor* ديار, *mavze’* موضع so‘zlari muayyan ma’muriy hududni anglatmasa ham, aholi yashaydigan joy ma’nosida *qishloq*, *tuman* so‘zlariga ma’nodoshlik kasb etgan: ...hazrati podshohi karamdastgoh Oqdarband eliga marhamat va shavqat ko‘rguzub, Zey *diyor*ida er berib, barchasin ul *maze’*da mutamakkin qildi. (RD, 263^b).

2.4. Iqtisodiy jarayon bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy leksikada sinonimiya.

Ushr عشر – dehqonchilik mahsulotlarining o‘ndan biri natura shaklida (yoki pul bilan) davlat foydasiga undirilishi, ya’ni “musulmon mamlakatlarida natura shaklida (ba’zan pul bilan) davlat foydasiga undiriladigan soliq... Har yili

¹¹⁹ Бу ерда Бухоро амири амир Хайдарнинг ўғли Умархон номи зикр этилмоқда.

¹²⁰ Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1979. – С.210.

dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. Ushr olingan er-suv “mulki ushriya” deb ataladi¹²¹: ... *ushru zakot*larin bermakchi bo‘lub... (RD, 279^b).

Zakot زكاة – nisobga etgan molning qirqdan bir qismi, zakot islom dinida muhim moliyaviy ibodat hisoblanadi: zakot axzi uchun *omillar* va ul amal ulumig‘a komillar yiborib... (RD, 262^a).

Qur‘oni Karim rasmul-xati (orfografiyasi)ga ko‘ra *zakot* so‘zi زكاة tarzida yoziladi¹²².

Xums خمس – o‘ljaning beshdan birini xazinaga topshirish solig‘i¹²³: g‘anoyimi bekaronning *xums* va g‘oniyin muvofiqi shar’ axz qilib... (RD, 261^a).

Xiroj خراج – dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan soliq¹²⁴: ...hukmi shar’ bila xiroj va zakotin olur erdi. (RD).

Boj باج so‘zi “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *xiroj*ning ma’nodoshi sifatida izohlanadi¹²⁵. Ushbu so‘zning Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma’nosi ham shunga muvofiq keladi: *boj* va zakotin muvofiqi shar’ olur erdi. (RD). Lekin farqli tomoni *boj* faqat dehqonchilik mahsulotlari emas, umuman, mol-mulkdan undiriladigan soliqdir. Xiva xonligida *boj* yig‘ishga mas’ul *bojmon* mansabi bo‘lgan¹²⁶. Hozir kunda qo‘riqxonada xizmatchilari xalq orasida *bojmon* deyiladi. Masalan, Cho‘kan bojmon.

2.5. Savdo-moliya terminlari tizimida sinonimiya. Ogahiy tarixiy asarlarida savdo-sotiq, moliyaviy munosabat tushunchasi asosan hozirgi adabiy tilimizdagi kabi *savdo* so‘zi orqali ifodalangan. Bu so‘zning ushbu ma’nosi Alisher Navoiy asarlari qayd etiladi:

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir *savdo*,

Bu *savdolar* bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o¹²⁷.

¹²¹ Ислам. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б.267.

¹²² Furqon. www.islom.uz.

¹²³ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. Al-rams. www.mehrahgam.com.

¹²⁴ Ислам. Энциклопедический словарь. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1991. – С. 274-275.

¹²⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б. 306.

¹²⁶ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// тюркология. – 1989. – №1. – С. 68.

¹²⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 29.

Mumtoz adiblarimiz tilida *savdo* shaklida genetik manbasi jihatidan alohida-alohida ikkita soʻz bor boʻlib, ularning har birining oʻziga xos koʻchma maʼnolari ham mavjud. Alisher Navoiy asarlarida *savdo* soʻzining quyidagi maʼnolarni anglatishi qayd etiladi: I a. Qora oʻt (inson organizmi). II a. 1. Kuchli ehtiros, berilish, ishq, shaydolik. 2. Xayol, tentaklik; jinnilik. 3. Istak, havas, orzu. III f. Oldi-sotdi¹²⁸. Ushbu soʻzlarning genetik tahlili arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻz sifatida Rim raqami bilan belgilangan birinchi va ikkinchi maʼno aslida bir soʻzning turli maʼno qirralari ekanini koʻrsatadi. Chunki arab tilida ushbu soʻzning oʻzagi boʻlgan feʼlning asl maʼnosi “bosh boʻlmoq”, “boshliq boʻlmoq”, “boshqarmoq”; “hukmronlik qilmoq”, “hokimiyat tepasiga chiqmoq”dir. Uning “qora boʻlmoq”, “qoraymoq” maʼnosi esa qayd etilgan mazmunlarda maʼno koʻchishi natijasida yuzaga kelgan¹²⁹. Ehtimol, bunda SHarq xalqlarining koʻpchiligi kabi (bu holat turkiy xalqlarda ham bor) qora rangning kuchlilik, hukmronlik belgisi ekanligi asos boʻlgan. Soʻzning “qora” maʼnosi esa oʻz navbatida “qora jigar” maʼnosidagi inson organizimini anglatishi uchun asos boʻlgan. SHarq tabobatida inson tana tarkibidagi toʻrt xilt oʻrtasida muvozanatning buzilishi uning ruhiy holatini salbiy tomonga oʻzgartirishi haqidagi qarashlardan kelib chiqib, ruhiy kasallikka chalinganlar *savdoyi* deb ham atalgan. *Savdo* soʻzining ruhiy siqilish, gʻamginlik, melanxoliya maʼnolari shu tarzda yuzaga kelgan. Koʻrinadiki, yuqoridagi baytda *savdo* soʻzining ikki marta (*savdo-sotiq*; *tashvish*, *gʻam*) qoʻllanishi orqali tajnis hamda ularning koʻchma maʼnolari (*havas*, *ehtiros*, *oshiqlik*) orqali iychom sanʼatlari qoʻllanilgan. Boburning mashhur “sochining savdosi tushti boshima boshdin yana” misrasida ham shu tarzda iychomning goʻzal namunasi yaratilgan.

Fors lugʻaviy qatlamiga mansub *savdo* soʻzining arabiy bu soʻzga omonimlik kasb etishi turli tillarga mansub soʻzlarning shaklan muvofiq kelib qolishidek koʻp uchraydigan hodisa natijasidir. Jumladan, arabcha *savdo* savadda – qoraymoq feʼlidan hosil boʻlgan sifatning arab tili qoidalariga muvofiq *faʼlaa*

¹²⁸ Navoiy asarlari lugʻati. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 537.

¹²⁹ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Ташкент: Ташкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б. 399.

qolipida hosil bo'lgan muannas (uning muzakkar ko'rinishi af'al vaznida *asvad*) shakli bo'lsa, forsiy *savdo* so'z ham ma'lum shakliy va ma'noviy taraqqiyotni bosib o'tgan. Bu so'zning o'zagi pahlaviy tilida "foйда" ma'nosini anglatuvchi *sūt* bo'lib, uning ildizi avestoviy *sav* – *foйда olmoq* fe'liga borib taqaladi¹³⁰. Demakki, "Jome'u-l-voqeoti sultoniyy"dagi quyidagi parchada *savdo* va *sud* so'zlarining qo'llanishidan ishtiyoq hosil qilingan: "*Savdodin sud* qilg'on korvondek o'z vatangohiga murojaat ko'rguzdilar".

Ogahiy tarixiy asarlarida mazkur so'zning "havas", "istak" tarzidagi ko'chma ma'nolari ham ishlatilgan. Jumladan, "nafsi ammora taqozosi bila *savdoyi xom* va xayoli nofarjomga dimog'lari koxida yo'l berib,..". Qayd etish kerakki, *savdoning* Ogahiy tarixiy asarlari lug'at tarkibida mavjud "boshlanish o'rni", "bosh" ma'nosi Alisher Navoiy asarlarida uchramaydi. Bu ma'no, albatta, arabcha *savada* fe'lining yuqorida zikr etilgan mazmuni bilan bog'liq. Masalan, "shanba kuni Qozuqlibandgakim, Yo'lo'tan yofining *savdosidur*, vorid bo'lub, nuzuli ijlol ko'rguzdilar" (JVS).

Ushbu so'z asosida yasalgan *savdogar* so'zi asardagi voqealar bayonidan asosan o'zga yurtlarga borib tijorat ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatilgani kuzatiladi. Jumladan, "Lubob sori boraturgan ba'zi ko'chu *savdogariga* baloi nogahoniy yonglig' doxil bo'lub,..". yoki "har tarafga chapovul urub, kema bila kelaturgon *savdogarlar* matoiga tatovul kulin etkurub, ba'zi fuqaroning dog'i amvolu mavoshisin oldilar"(JVS).

Savdo va savdogar tushunchalari arab tilidan o'zlashgan *tojir* va *tijorat* so'zlari bilan ham ifodalangan. SHuningdek, forsiy *korvoniyy* so'zi ham savdogar tushunchasini anglatgan. Ayonki, bunda asosan korvon bilan o'zga yurtlarga borib, tijoratni amalga oshiradigan shaxslar nazarda tutilgan. *Korvon* so'zining tarixiy tarkibi, tadqiqotlarda qayd etilishicha, "kor" so'zining "jangchi", "sipoh" ma'nosiga nisbat va tegishlilikni anglatuvchi *-bon* // *-von* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Mumtoz fors adiblari tilida uning *korbon* shakli ham uchrashi qayd etilgan. SHu tariqa "korvon" aslida harbiy terminlar tizimidan savdo-

شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۴ ص ۱۱۸۴¹³⁰

moliyaga aloqador soʻzga aylanganini taxmin qilish mumkin. Ogahiy tarixiy asarlarida ham *korvon* soʻzi savdo korvonidan tashqari etnik guruhlardan tashkil topgan jangari otryadlarni anglatishi maʼlum boʻladi. Masalan, “bir yoʻlga etushdilarkim, ondin soriq va solur mufsidlarining *korvoni* Buxoro viloyatiga qatnar erdi” (JVS).

Qayd etilgan faktlar asardagi savdo-moliya tizimga oid terminlar tahlili ushbu soha terminologik tizim rivoji tadqiqida ham muhim ekanligini koʻrsatadi.

Tijorat va moliyaviy amaliyotlar, toʻlovlar, tushum va hujjatlar turlarini ifodalovchi terminlar, shuningdek, savdo-moliya sohasi vakillari, muassasalari, maxsus joylar nomlari kabi ichki guruhlariga boʻlish mumkin.

2.6. Maishiy leksikada sinonimiya. Ogahiy tarixiy asarlarida qoʻllanilgan maishiy leksikaga mansub soʻzlarni oʻz navbatida ichki guruhlariga ajratish mumkin. SHulardan biri kiyim-kechakka oid soʻzlardir. Bu masala oʻzbek tilshunosligida monografik planda oʻrganilgan¹³¹. Bundan tashqari Xiva xonligida kiyim-kechak tarixi maxsus tadqiq qilingan¹³². Asarda kiyim-kechakni umumlashtirib ifodalovchi arabcha va forsha oʻzlashma boʻlgan *libos* (koʻpligi *albisa*), *kisvat*, *xilʼat*, *xiloʻ*, *sarupo* soʻzlari ishlatilgan.

Xiloʻi foxira, *xiloʻi tilladoʻz*, *xiloʻi mulukona* – xon tomonidan inʼom qilinadigan faxriy kiyim-bosh: “*xiloʻi mulukona* inʼomidin bahramand va arjumand boʻldilar. (JVS); “... *xiloʻi xurshidshioʻ* va *albisai* garonbaho inʼomi bila oʻz akfo va ashbohlari orasida quyosh yangligʻ mumtoz va sarafroz qildilar. (JVS).; *libosi* mulammaʼ inoyat qilib, yana ming kishiga *sarupoyi* zardor baxshishidin harabardorligʻ bagʻishladilar. (JVS).

¹³¹ Асомутдинова М. Ўзбек тилида кийим-кечак ва унинг қисмлари номлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1970.

¹³² Мукминова Р. Г. Костюм народов Средней Азии по рисменным источникам в // Костюм народов Средней Азии. М, 1979.; Мукминова Р. Г. Костюм народов Средней Азии по рисменным источникам в // Костюм народов Средней Азии. М, 1979 .; Сухарева О.А. Одежды населения города Самарканда за 100 лет. Рукопись. Архив института истории и археологии АН Уз. Ее же. Об одежде узбеков. Бюллетень Уз ГУ, Самарканд: 1944; Нуруллаева Ш. Либосларда акс этган тарих. // Илм сарчашмалари, 2009. № 5.; Нуруллаев Ш. Из истории выработки шелка и производство одежды в хивинском ханстве (конные XIX – начале XX) // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. . 2007. №3(4). – С. 33-37.

2.7. Mavhum ma'nolarni anglatuvchi leksik birliklar. O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha va forsha so'zlarning ko'pchiligini mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar tashkil qiladi. Bu holni asar leksik tarkibida ham ko'rishimiz mumkin. Ularning ayrimlari bir-biri bilan sinonim bo'lib, ko'p hollarda juft so'zga aylangan. Masalan, tilimizda har ikkala qismi ham tarixan arab tiliga mansub *ishq-muhabbat* juft so'zi keng ishlatiladi. Ogahiy tarixiy asarlarida bu tushunchani ifodalovchi *vidod* so'zi ham mavjud: "*muhabbat va vidod* tariqasi bila kelib,.. (JVS). Bu so'zlarning tarixiy-etimologik tahliliga nazar salsak, bir-biriga ma'nodosh mazkur so'zlarning juft holatga kelishi ularning qay darajada semantik o'zgarishga uchraganini izohlashda qo'l keladi. Ushbu juft so'zning birinchi tarkibiy qismi *ishq* عشق *a'shiqa* – "sevmoq", "oshiq bo'lmoq" fe'lining masdari (infinitivi) shakli sifatida shakllangan¹³³. Tarixan esa *ishq* so'zining o'zi mazkur ma'noga polisemiya natijasida o'tgan bo'lib, o'simliklarga chirmashib uni quritadigan giyoh nomi denotant vazifasini bajargan. Bu haqda mashhur leksikograf Muhammad Rampuriyning "G'iyosu-l-lug'ot" asarida quyidagilarni o'qiymiz: "*Ishq* biror narsani haddan ziyo sevmoq; Tabiblar istilohida biror go'zal narsani ko'rib qolish natijasida paydo bo'ladigan kasallik. Abdurazzoq SHorih Zuhuriy "Sharhi asbob" va "Futuhoti hikam"dan naql qilishicha, *ishq* loviyaga o'xshagan o'sadigan, (lekin) daraxtlarga chirmashib, uni quritadigan bir o'simlik nomidir"¹³⁴. Endi uni *muhabbat* so'zining tarixiy-etimologik tahlili bilan solishtirsak, fikrimiz biroz oydinlashadi. *Muhabbat habba* حب – "sevmoq", "yaxshi ko'rmoq", "qattiq muhabbat bog'lamoq", "arzanda qilmoq" fe'li asosida shakllangan¹³⁵. Uning "tilamoq", "orzu qilmoq", "xohlamoq" ma'nolari esa dastlabki ma'noga mantiqiy bog'liqlik natijasida hosil bo'lgan. Demak, tahlillar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalovchi ushbu so'zlardan *ishq*da ma'no ustunligi mavjudligini, ya'ni *ishq* so'zida sevgi mazmuni kuchliligini ko'rsatadi. Bu holni ushbu so'zlarning o'zakdoshi bo'lgan, aniqrog'i, shaxs oti

¹³³ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

¹³⁴ Ғиёсиддин Рампурий. Ғиёсу-л-луғот. – Лакхнау: 1886. – С. 324.

¹³⁵ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

hosil qiluvchi shakllari *oshiq* va *muhib* soʻzlari orqali ham koʻrishimiz mumkin. Deylik, biror shaxsga yoki narsaga koʻngil bogʻlagan inson *muhib* boʻlishi mumkin, lekin bu muhabbat komil boʻlmaguncha, inson ushbu sevgi orqali kamolot kasb etamaguncha *oshiq* darajasiga koʻtarila olmaydi. SHuning uchun ham, Ahmad YAssaviy “Har ne qilsang *oshiq* qilgʻil, Parvardigor!” – deydi. Alisher Navoiyning “Boʻlmasa *ishq* ikki jahon boʻlmasun” misralaridan ham ayni shu fikrni tasdiqlaydigan jihatlarni topamiz. Bizningcha, muhabbat (muhiblik) *ishq* maqomiga boʻlgan dastlabki odimdir. Nodiraning “Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsen, muhabbat ixtiyor et” – baytini ayni shu nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin.

Ushbu tahlillardan maʼnodosh soʻzlardan tashkil topgan juft soʻzlarda tarkiblar anglatgan tushunchani nisbatan kuchli ifodalovchi qismi birinchi oʻrinda keladi, degan xulosa chiqarish mumkinday tuyulsa ham, uni boshqa shunday soʻzlar bilan qiyoslash yuqorida bayon qilingan tarzda xulosa yasashimizga monelik qiladi. Jumladan, oʻzbekcha+arabcha *sevgi-muhabbat* juft soʻzida sevgi tushunchasi birinchi komponentdan koʻra ikkinchi komponentda kuchliroq ifodalangani koʻrinib turibdi. YOki almashtirib qoʻllash ham mumkin boʻlgan maʼnodosh komponentlardan tarkib topgan juft soʻzlar ham mavjudligini eʼtiborga olaylik. Masalan, *doʻst-yor – yor-doʻst*. Bu mulohazalar juft soʻz komponentlarida tartib masalasiga oid “komponentlar tartibi maʼlum bir qoidaga asoslanilmaydi, ularning tartibi har bir juft soʻz qismlarining oʻziga xos fonetik, leksik-semantik xususiyatlari bilan alohida izohlanadi” – degan xulosani mustahkamlaydi. Demakki, *ishq-muhabbat* juft soʻzida *ishq* komponentining birinchi oʻrinda kelishi kam boʻgʻinli soʻzning oldin joylashishi bilan izohlanadi.

Ushbu mulohazalarimizni asoslovchi dalillarni *doʻst-yor* va *yor-doʻst* juft soʻzlarining tahlili orqali ham topamiz. *Doʻst* soʻzining lugʻatlarda quyidagi maʼnolarda ishlatilgani qayd etiladi: 1. YOr, oʻrtoq. 2. Oshiq. 3. Tarkibli soʻzlarda “yoqtiruvchi”, “sevuvchi” maʼnolarida. Masalan, *bashardoʻst* (gumanist, insonparvar), *dunyodoʻst* ¹³⁶. Oʻzbek mumtoz adiblari tilida qayd etilgan

¹³⁶ Муъин М. Фарҳанги форсий. 2-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 1577.

ma'nolarning barchasi ishlatilgani kuzatiladi. *YOr* so'zi pahlaviy tilida *āyārih*, *ayār* shakllarida qo'llanilgani, 1) sevikli, ma'shuq; 2) do'st; 3) o'rtoq; 4) hamroh ma'nolarini berishi izohlanadi¹³⁷. Forscha *yor* o'zbekcha *yor* (fe'l negizi) bilan omonimlik kasb etsa ham, forsiy *yor* so'zining unlisi nisbatan kengligi bilan farqlanadi. Buni ayniqsa, eski o'zbek tilidagi nazmiy asarlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Ushbu so'zlar qo'llanilgan eski o'zbek tilidagi va hozirgi adabiy tilimizdagi matnlarga bir bor nazar tashlash ushbu ma'nodosh so'zlardan "do'st"da "yor"ga nisbatan anglashilayotgan tushuncha umumiy va keng qamrovli aks etganini ko'ramiz. SHuning uchun ham *do'st* so'zida inson uchun sevimli shaxs yoki boshqa moddiy-ma'naviy tushunchalar to'laroq aks etadi. Tilimizda ushbu o'zlashma asosida aynan "yor tutmoq" emas "do'st tutmoq" (masalan, biror shaxsni, moddiy yoki ma'naviy biror narsani – dunyoni, kitobni, YAratganni kabi) fe'lining shakllanishi ham bejiz emas. Bundan tashqari *do'st* so'zida *yorga* nisbatan biror insonga yaqinlik semasi kuchliroq aks etadi. Deylik, bu so'zda shaxslar o'rtasidagi zavol topmas va aks holatga o'tmas darajadagi yaqinlik nazarda tutiladi. Mumtoz adiblarimiz ijodidagi muhim intim, ijtimoiy-siyosiy mulohazalar do'stga murojaat orqali aks etgani ham bejiz emas. Masalan, Alisher Navoiyning o'ta intim, behad hissiy fikrlari "Qilmangiz bekasligimni ta'n bir kun bor edi, Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar!" tarzida ifoda topgani bu mulohazalarimizni quvvatlaydi. Ushbu holat ikki ma'nodosh so'z o'rtasidagi xususiylik bo'lsa, ularning o'rtasida umumiy jihatlar ham ko'p. Jumladan, har ikkala so'z ham insonga yaqin biror inson degan ma'noni ifodalaydi. Endi ushbu holatni boshqa jonzotlarga nisbatan qo'llashda ma'nodoshlar o'rtasida tafovut yuzaga keladi, ya'ni "it – insonning do'sti" yoki "Boychibor – Alpomishning do'sti" kabi ifodalarda *do'st* va *yor* so'zlarini bir-biriga almashtirish imkoni yo'qligi yuqorida aytib o'tganimizdek, *do'st*da *yorga* nisbatan umumiylik mavjudligi, ayni paytda semani kuchli ifodalay olish qobiliyati mavjudligi yaqqol ko'rinadi. *YOr* so'zining *do'st*ga nisbatan semasi "kuchsizlanishi"ga sabablardan

¹³⁷ Муъин М. Фарҳанги форсий. 4-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 5241.

biri uning “hamroh”, “yo‘ldosh” ma’nolarini ham kasb etganidir. Chunki, har qanday hamroh ham do‘st bo‘la olmasligi tayin.

Bobda bayon qilingan materiallar asosida Ogahiy tarixiy asarlari lug‘at fondi sinonimimyasi borasida quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilish mumkin:

– Ogahiy tarixiy asarlari mavzusiga bog‘liq ravishda, tabiiyki, unda harbiy leksika hamda ijtimoiy-siyosiy terminlarni ifodalovchi so‘zlar sinonimimyasi salmog‘i katta;

– asarda qo‘llanilgan sinonimik qatordagi arabcha va forsha o‘zlashma so‘zlarning ma’lum qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Bu, xususan, fitonimlar, zoonimlar, qarindoshlik terminlarga tegishli;

– asar lug‘at fondidagi sinonim so‘zlar tadqiqi uning leksikasini tizimli, izchil tadqiq qilishda muhim o‘rin tutadi.

III BOB. OGHIY TARIXIY ASARLARI TILIDA ANTONIMLAR

3.1. Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi antonimlarning umumiy tasvifi.

“...Qarama – qarshi tushuncha yoki tasavvurlarni ifodalaydigan, soʻzning maʼnolari orasidagi ziddiyatni bildiradigan soʻzlarga antonim deyiladi”. Ziddiyat (antonimiya) ikki soʻz oʻrtasida vujudga keladi. Bu lisoniy hodisa.

- a) ifodalanayotgan tushuncha belgilarining zidligi;
- b) soʻzlar mazmuni bir-birini inkor qilishi asosida yuz beradi.

Ikki soʻzda belgilar zidligi, inkor xususiyati ham mavjud boʻlsa, ular toʻla antonimlar boʻladi. Agar ikki jihatdan biri noqis boʻlsa, yarim antonimlar deyiladi. Masalan, *oqil* عاقل va *ahmaq* احمق soʻzlari belgilar zidligi, jihatidan ham, inkor qilish jihatidan ham, qarama-qarshi ekanligi bois toʻla antonimlardir. “Ayol” va “erkak” soʻzlarida esa belgilar zidligi mavjud, ammo inkor qilish jihati kuchsiz boʻlib, oʻzaro umumiylik seziladi. Shu sababli ular mantiqan yarim (noqis) antonimlardir.

Ogahiy tilida bir-biriga antonim boʻlgan koʻplab arabcha soʻzlar uchraydi. Y.D.Pinjasov tasnifi boʻyicha ularni quyidagicha koʻrsatish mumkin:

1. Toʻla antonimlar:

Layl ليل – tun, *nahor* نهار – kunduz,
Asvad اسود – tim qora, *abyaz* ابيض – oppoq.

2. Yarim (noqis) antonimlar:

Zavj زوج – er, *zavja* زوجة – xotin,
SHams شمس – quyosh, *qamar* قمر – oy.

Tematik jihatdan antonimlar tasnifi:

1. Predmet belgilarini ifodalaydigan antonimlar:

Sagʻir صغير – kichik, *kabir* كبير – katta.

2. Oʻrin va oʻringa munosabatni ifodalaydigan antonimlar:

Arz ارض – yer, *samo* سما – osmon,
Doxil داخل – ichkari, *xorij* خارج – tashqari.

3. Payt, zamonni bildiruvchi antonimlar:

Layl ليل – tun, *nahor* نهار – kunduz,

Moziy ماضى – oʻtgan, *mustaqbal* مستقبل – kelasi.

4. Harakat–holatni bildiruvchi antonimlar:

Tavallud تولد – tugʻilish, *favt* فوت – oʻlish;

Qatl قتل – oʻldirish, *ihyo* احيا – tiriltirish.

5. Oila, qarindoshlikka oid antonimlar:

Xol خال – togʻa, *xola* خاله – xola;

Amu عمو – amaki, *amma* عمه – amma;

Jadd جد – bobo, *jadda* جده – buvi.

6. Holat-usulni bildiruvchi antonimlar:

Aʼlo علو – yuqori, *adno* ادنا – quyi.

7. Miqdorni bildiruvchi antonimlar:

Kasir كثير – koʻp, *qalil* قليل – oz va hakoza.

Antonimlarning shakli tasnifi:

1. Zoida (qoʻshimcha)li antonimlar.

Bu holatda oʻzak oʻzgarmagan holda zoida (qoʻshimcha)lar maʼnosi zidligi bois antonimlar hosil qilinadi. Masalan, *ahl* اهل – ahl, mahram, no- (forsiy (+ ahl – noahl, tegishli boʻlmagan kabi. Bu tip antonimlarni hosil qilishda -siz, -li, -lik (turkiy; no-, ba-, be- (forsiy); gʻayri-, bi-, illo- (arabcha) kabi qoʻshimcha va qoʻshimchaga muqobil soʻzlar faol ishtirok etadi.

2. Leksik (har xil oʻzakli) antonimlar.

Bu tip antonimlar biror qoʻshimchasiz ham maʼno munosabatiga koʻra antonim hisoblanadi:

Layl ليل - tun, *nahor* نهار - kunduz.

3.2. Ogahiy tarixiy asarlaridagi antonimlarning soʻz turkumlari boʻyicha tahlili. Eski oʻzbek tilida uch soʻz turkumi mavjud boʻlganligi, toʻgʻrirogʻi hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi soʻz turkumlarining hammasi ana shu uchovida mujassamlashgani bois, Ogahiy tilida antonimlarni soʻz turkumlari boʻyicha quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Ism antonimlar.

2. Fe'l antonimlar.
3. Harf antonimlar.

Ism antonimlar o'zida

- a) ot antonimlar;
- b) sifat antonimlar;
- v) ravish antonimlarni jamlaydi.

Fe'l antonimla antonimiyani, asosan, ot qism anglatgan ma'no hosil qiladi. Ot qism orqali antonimiya hosil bo'lishi *g'ofil* (arabcha) *bo'lmoq* – *voqif* واقف *bo'lmoq* fe'llaridagi kabidir. Bunda *g'ofil* va *voqif* so'zlari (ot qismi) ziddiyati bois qarama-qarshi ma'no yuzaga keladi.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi fe'llar antonimiyasini quyidagi mavzu guruhlarda tahlil qilishimiz mumkin.

Harakat fe'llari¹³⁸ antonimiyasi:

To'xtamoq va *harakat qilmoq* ma'noli fe'llar zidligi –

To'xtamoq – ... jum'a oqshomi qamari sariu-s-sayrdek sur'ati lozimulxayr bila shabgir qilib, Xonuyuqi otliq manzilg'a *qadami saodat tavomi vusuli bila sarafrozlig' etkurdi*; ...vusuli qabuli bila *mufaxxari manozil qildi*; – ...*nuzuli maymanatshumuli bila sarbalandlig' yetkurdi*; Darvoza qiri otlig' marhalani *vurudi bahor namudi fayzidin bog'i eram yanglig' sabzu xurram qildi*; ... Onda bir kun *mutavaqqif bo'lub*,...; ... Soqcha quduqi havolisin muaskari asokiri feruziyasar va mavze'i, *sarodiqoti zafarparvar qildi*; ... Ul havlnok qumning nishebu farozin borgohi falakpoygoh va saropardayi davlatpanoh va xiyyomi saodatfarjom barpolig'i bila *rashki shahristoni Chin va g'ayrati firdavsbarin qildi*; Chahorshanba kuni yana shabgir qilib, Xonto'pasi otlig' manzilg'a *nuzul etdi*;

Harakat qilmoq ma'noli qo'shma fe'llar: ... xurshidi jahonoro yanglig' *azimatpaymo bo'lub*,...; ... chahorshanba kuni Yog'lito'pa mavzeidin *davlat kumaytig'a rukub qilib*,... lashkari beshumor va sipahi jarror bila *harakat qilib*,...; ...tonglasikim, dushanba kuni erdi, xurshidi jahontob chobuksuvori falaki

¹³⁸ Тенишев Э. Глаголы движения в тюркских языках // История развития лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН, 1967. – С. 232-293; Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг семантик структураси. – Тошкент: Фан, 1991.

rifʼatmaob mizmori sori *inontob boʻldi*,...; guruhi qiyomatshukuh va lashkari mahsharasar bila *tebrab*,...; ikki manzillik masofatni *qatʼ etib*,...; ... Qaysi daryo uzrakim, *ozim boʻlub*,...; ... Onda sipohi shijoatdastgoh osoyishi uchun uch kun tavaqquf koʻrguzub, seshanba kuni ondin *azimat yakronin karamjavlon qilib*,...; Panjshanba kuni ondin *nahzat livosin jilvagʼa kirguzub*,...; Panjshanba kuni ondin *rukub qilib*, sipohi nusratpanoh bila *qadamfarsoyi azimat boʻlub*,...; ... tokim mahobati tamom va salobati lokalom bila xalqulloh ahvolining intizomigʼa *qiyom koʻrguzdilar*,...; Ul hazrat julusi jahonorosidin to etti oygʼacha bu tariqada lavozimi saltanat ishtigʼoligʼa iqdom va fuqarou raʼiyat ahvolining intizomigʼa *ehtimom koʻrguzub*,...; ... Chobuksuvor xomayi jalodatpardoz arsai sahoyifda bu yangligʼ ogʼozi *taku toz qilurkim*,...; ... Shanba kechasi dogʼi shabgir bila *qatʼi masofat etib*,...; Manozli mavzeʼigʼa *azimat markabin surub*,...; ... Shanba kuni ul mavzeʼdin *koʻchub*,...; ... Yakkasoʻzon otligʼ mavzeʼni lashkargoh etti va andin *harakat koʻrguzub*,...; ... qalʼakushoyliq umurigʼa *iqdom koʻrgʼazdilar*; va shujaoʼyi shershukuh va qutaloyi jalodatpajuh va lashkari mavfura va sipahi mansura favj-favj va guruh-guruh darbanddin *murur qilib*,...; hamrikobligʼida Sogʼcha atrofiddin *otlanib*, bodiypaymoyi *azimat boʻlub*,...

Shuningdek, turli mavzu guruhlariga mansub *bermoq* maʼnoli ... (iltizomlarigʼa safar asbobining tahiyasi uchun *inʼom qilgʼay*), *tayyorlamoq* – (asbobi harb va oloti zarbgʼa ehtimomi tamom bila *saranjom berdilar*,...); *tayyorlamoq* maʼnoli (... chun oz fursatda asbobi safarni bahaddi dilxoh *muhayyo va omoda qilib*,...); *talamoq* (... alargʼa zobit yasovullar qoʻshub, karvonning barcha *talatgʼan* amvolin irtidod qilib,...; ... mollarin *gʼorat qilib erdilar*); *tekislamoq* maʼnoli (...bir dam oni yer bila *hamvor etib*); *tinglamoq* maʼnoli (... mulotifatosor *xitobgʼa muxotif boʻldilar*,...); *tor boʻlmoq* maʼnoli (... kunjoyishidin *tang oʻldi* homun); *tugatmoq* maʼnoli (mamlakatdorligʼ afsarin olib xorligʼ sarhadigʼa yetkurur); toʻldiroq maʼnoli (*toʻldurub* oni bani Odam bila,...); *tunda yurmoq* maʼnoli (...yakshanba kechasi *shabgir qilib*,...); toʻplamoq maʼnoli (*Jamʼ etibon* tosh ila oʻq behisob,...); *oʻrab olmoq* maʼnoli (... atrof-u javonibin izhori gerudor bila pargor masallik *ihota qildilar*,...); *oʻrnashmoq* maʼnoli

(...julg'a ichindagi qal'ada *mutavattin bo'lib*,...); *yoqotmoq* ma'noli (...ul hisori charxnamudor devorin shijoat sayli bila *munhadam* va shia ahlining nopok vujudin *mun'adam qilg'udekdururlar*); *yo'lini to'smoq* ma'noli (...tokim, nogoh yog'iydin sipah etishsa, *man'i roh qilg'oilar*); *ko'chmoq* ma'noli (andin *livoafrozi nahzat bo'lib*,...); *qadam qo'ymoq* ma'noli (...ang'a *gom ursa* raxshi badraftor, Botib to tizg'acha *bo'lg'usi* nokor); *qaytmoq* ma'noli (...sadamati maymanatanjom bila *davlat ayoqin saodat rikobig'a qo'yub*, *himmat yakronig'a rukub qildi*); *qaytmoq* ma'noli (...izzati vofir va shaqati mutakosir bila bahramand va arjumand *bo'lib*, shodkomliq bila *muovadat qildilar*); *qaytmoq* ma'noli (...Seshanba kuni Qorri qal'adin *ko'chub*, *nahzat alamin jilvagar qilib*,...); *qaytmoq* ma'noli (...yakshanba kuni Juvozli marhalasidin kavkabayi tamom bila *nahzat samandig'a mahmiz berib*,...); *qo'lga olmoq* ma'noli (...Odam avlodining *tahti tasarrufig'a kirguzdi*...); *qurmoq* ma'noli (aning ichindagi julg'aning ikki darbandi bordurur. Kun botar tarafdagi darband dahanasida bir qal'a *barpo qilib*,...); *qo'rmoq* ma'noli (devore *binu qilmishlarkim*,...); *qo'shilmoq* ma'noli (... va o'zga atrofdag'i eldin ham guruh-guruh cherik kelib, daryoyi mavvojg'a har jonibdin sel mayl *ko'rguzg'andek afvoji mansura* va sipohi qohirag'a *mulhaq bo'ldilar*); *qo'shilmoq* ma'noli (Ul manzilda Qaroxon sipohi, taka va yamroli cheriki favj-favj kelib mavokibi humoyung'a *qo'shuldilar*); *lashkar to'plamoq* ma'noli (... Juvozli marhalasi *sipohi zafarpanohg'a oromgoh bo'ldi*) *hurmat qilmoq* ma'noli (... Ul mavze'da Tajan mutavattinlarikim, taka va yamroli erdilar, yuz nav' iztiror va ming turluk inkisor bila *atababo'slig' marosimin izhor qilib*,...); *lashkar to'plamoq* ma'noli (... Jum'a kuni ondin *ko'chub* Sabadli mavze'in maskani royoti nusratoyot va *muaskari asokiri zafarmaosir qildi*; chahorshanba oqshomi shabgir qilib Chiroqli qumin *muaskar qildi*); *jang qilmoq* ma'noli (...qaysi aduv uzraki, *etkurdi ot*, Oni piyoda etibon qildi mot; ... bu yurushdin maqsad *chopmoq* va qochmoq ermasdurur,...; ... va atrofdagi kamargohlardan qodiri andoz shamxolchi va jazoyirchilar paydarpay *gulo'laafshonlig' marosimin zuhurg'a etkurub*,...; ... va g'azvu jihod yakronin *dorulharb maydonig'a surmak*... (Qilg'oy edi *bo'lsa* ango ham *masof*, Junbig'a

Rustam o'zini e'tirof; tiyg'i qizilboshg'a *qotil kelib*); jangga tayyorlanmoq ma'noli (Ul mavze'da Saraxs cheriki *musallah va mukammal bo'lub*,...); joylashmoq ma'noli (Kim, vujud ayvonida *tutqay qaror*; mazrabi borgohi saodat iltizom va *maskani a'lomi maymanatanjom qildi*; ... hamul tog' Tus qal'asining shimoliya jonibida *voqe'durur* va Nartav tog'ig'a mashhurdurur; ... Ul nav' yig'ildi xayli lashkar,...; *Jahd etibon* ul dara hifzi uchun); *xursand qilmoq* ma'noli (Birni g'amgin birni *shodon ayladi*; ... karvoniylarning ozurda ko'ngillarini *shod etdi*); *istamoq* (*tiladikim*, kuffori fujjorkim, munkiri dini mubin va rahnagari shar'i matindurlar, alarning indifo' va in'domi uchun sarih yiborg'ay); *bo'ysunmoq* ma'noli (Birov rayig'a *aylabon iktifo*,...); *bo'ysunmoq* ma'noli (...marosimi adab bila atabayi rif'atnamoy tufrog'ig'a *jabinsoy bo'lub*,...; ...qilg'on gunohlari shifoati uchun avf umidi bila *jabhasoyi summi sutur bo'ldilar*); buyurmoq (Dedilarkim: "Ey xusravi komron, Na *amr aylasang* jonimizg'a ravon; ...dog'i shahzodayi volotaborning rikobi davlat osori mulozamatig'a *maxsus etib*,...); dam olmoq ma'noli (...onda ikki kecha rag'batini tamom bila *istirohat qilib, sarxushi bodayi ishrat bo'ldi*; ... Ul mavze'da bir kun *oromguzin bo'lub*, tonglasikim, shanba erdi,.. Ul mavze'da ikki kecha *bistaroroyi farog'at va qadahpaymoyi istirohat bo'ldi*...; Ul manzilda ikki kecha masnadi izzatda *istirohat ko'rguzub, ayshu ishrat dodin berdi*); ko'rsatmoq ma'noli (Alviyayi sharofatta'biyani o'z trusida *jilvag'a kirguzub*,...; qudratin chun Tangri *izhor ayladi*,...; ...lashkari nusratasar, dargohi davlatparvar tarafig'a atrofi javonibdin azimatgustar va hujumovar *bo'lub*, mashhar izdihomin *padidor qildilar*; ...Tog'g'a gar qahrini *izhor etib*,...; e'tibor silkig'a kirguzib, el ko'zig'a gavhari serobdek *namudor et*) kabi fe'llar o'zaro shakl va ma'no munosabatiga kirishgan.

Keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, Ogahiy tarixiy asarlaridagi fe'l sinonimlarni shakllanish jarayoniga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Turkiy so'zlarning o'zaro sinonimisi: *qo'zg'almoq – tebralmiq*.

2. Sodda fe'llarga qo'shma fe'llar sinonimligi: *ishonmoq* – *bovar aylamoq*; *hurmatlamoq* – *pos tutmoq* kabi. Bunda fe'llarning ot qismini asosan o'zlashma – arabcha va forsha so'zlar tashkil qiladi.

3. Fe'llarning badiiy o'xshatish asosidagi obrazli ifodalari: *qaytmoq* – *muovadat yakronin surmak* kabi.

Harf antonimlarga, asosan, qo'shimchalar, predloglar kiradi. Masalan: *bilmilh* بالملح - tuzli, *bilomilh* بلاملح - tuzsiz. Bunda bi- o'zbekcha -li, lo- o'zbekcha –siz qo'shimchalari muqobilidir. “Bilo-” qo'shimchasi arab tili tabiatiga ko'ra hosil bo'lib, “-siz” qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Ko'makchi antonimlarga *taht* تحت (ost), *favq* فوق (ust) kabilar misol bo'ladi. Tarixan fe'ldan hosil bo'lgan taht, favq ko'makchilari Ogahiy tilida, eski o'zbek tilidagi kabi aksar hollarda arabiy va forsiy izofali birikmalar tarkibida uchraydi.

Ma'lumki, antonimiya hodisasi hamma so'zga ham xos emas. Bu uning anglatgan ma'nosi, ifodalagan tushunchasiga bog'liqdir. Shu bilan birga mazmun va ifodalanayotgan tushuncha xususiyati bilan bog'liq ravishda bir so'z bir necha antonimlarga ega bo'ladi. Bu holni Ogahiy tilidagi arabizmlarda ham ko'ramiz. Masalan, *oqil* عاقل so'zi aqlli, dono ma'nosida qo'llanganda *johil* جاهل - bilimsiz, nodon so'zi bilan; esli-hushli, aqli joyida bo'lgan odam ma'nosida *safih* سفيه - telba, devona so'zi bilan antonim bo'ladi.

Demak, sinonimlarda kuzatilganidek, ya'ni bir so'zning birdan ortiq sinonimik qatorga tegishli bo'lishidek, bir antonimik juftlikka tegishli so'z yana bir ma'nosi bilan boshqa antonimik juftlikka tegishli bo'ladi. Bu hol so'zning ko'p ma'nolilik xususiyati bilan bog'liq. Buni yuqoridagi misollarda kuzatish mumkin.

Antonimlar masalasiga nafaqat tilshunoslik, balki, mantiqiy, falsafiy va uslubiy jihatdan yondashish zarur bo'ladi. Shuningdek, mazkur fikrlar mavzuga bir nazardir.

Bob yuzasidan quyidagicha xulosalrni bayon qilish mumkin:

- Ogahiy tarixiy asarlaridagi antonimlar tizimining mavzuiy guruhlar hozirgi o‘zbek adabiy tilidan deyarli farq qilmaydi;
- Antonimik juftliklar o‘rtasidagi asosiy farq tushunchalar o‘rtasida emas, balki ana shu tushunchalarni ifodalovchi lug‘aviy birliklardadir;
- Ogahiy tarixiy asarlarida sinonimiyada bo‘lgani kabi fe‘l antonimiyasida orginalligi, badiiy bo‘yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

- Ayrim omonimlar ko‘p ma’noli so‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy jihatdan bog‘liqlik bo‘lgan holda, “zanjir”ning uzilishi natijasida paydo bo‘lishi mumkin. Bunday omonimlar etimologik jihatdan bir tilga mansub bo‘ladi. Bu jarayonda ularning grammatik xususiyati ham o‘zgarishi mumkin.
- O‘zqatlamda mavjud biror so‘z shakldosh o‘zlashma so‘z paydo bo‘lishi natijasida ham omonimlar hosil bo‘ladi. Masalan, o‘zbekcha *yor* (yormoq, bo‘lmoq) va forsiy *yor* (yor, do‘st, mahbub; mahbuba) so‘zlari kabi.
- Har xil tildan o‘zlashgan so‘zlar omonim bo‘lishi mumkin. Masalan, ruscha *sud* (davlat organi, sud) va forsha *sud* سود – foyda, manfaat.
- Biror tildan bir so‘z o‘zlashadi, yana bir so‘z fonetik o‘zgarishga uchrab, shu so‘z bilan omonim bo‘lib qoladi. Misol uchun arabcha *huzur* حضور hozir bo‘lmoq va arabcha *huzur* حظور so‘zlari. Ikkinchi *huzur* “huzur-halovat” birikmasidagi aslida “haz” حظ so‘zining siniq ko‘pligidir va u hozirgi o‘zbek adabiy tilida fonetik o‘zgarishga uchrab, omonim so‘zlar sirasiga kirgan.
- O‘zqatlamda mavjud yoki o‘zlashgan so‘zga shaklan mos bo‘lsa ham, urg‘uda farq qiluvchi so‘z boshqa biror tildan o‘zlashadi. *Atlas* اطلس (arabcha) – silliq atlas, ipak matoning bir turi, *atlas* (afsonaviy yunon pahlavoni Atlant nomidan) – atlas, ma’lum maqsadda tuzilgan kartalar to‘plami.
- Ogahiy tilidagi omonimlarni kuzatar ekanmiz, hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tilidagi, boshqacha qilib aytganda, diaxron va sinxron tasnifning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘ramiz.

– Ogahiy tilidagi (eski o‘zbek tilidagi deyish ham mumkin) omonimlarni sof omonimlar (harfiy ifodasi (shakli) va talaffuzi aynan bir xil so‘zlar); talaffuzi bir xil, harfiy ifodasi har xil bo‘lgan omonimlar; imloda unlilar ifodasi va talaffuzida unlilarning cho‘ziq- qisqaligida ma’lum darajada farq qiladigan, ba’zi o‘rinlarda (masalan, vazn bilan bog‘liq hollarda) bu farq sezilmaydigan omonimlar; omograflar (harfiy ifodasi bir xil, talaffuzda farq qiladigan so‘zlar); omofonlar (shakli har xil, talaffuzida (undoshlar orasida) qisman farq mavjud so‘zlar); urg‘u o‘rniga ko‘ra farqlanadigan, lekin harfiy ifodasi bir xil so‘zlar kabi turlarga ajratish mumkin.

– Mumtoz adiblarimiz shakldoshlikning turli ko‘rinishlaridan foydalanib, tajnis, iyhom kabi badiiy san’atlarning go‘zal namunalarini yaratganlar.

– Ogahiy tarixiy asarlari mavzusiga bog‘liq ravishda, tabiiyki, unda harbiy leksika hamda ijtimoiy-siyosiy terminlarni ifodalovchi so‘zlar sinonimiyasi salmog‘i katta;

– asarda qo‘llanilgan sinonimik qatordagi arabcha va forsha o‘zlashma so‘zlarning ma’lum qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Bu, xususan, fitonimlar, zoonimlar, qarindoshlik terminlarga tegishli;

– asar lug‘at fondidagi sinonim so‘zlar tadqiqi uning leksikasini tizimli, izchil tadqiq qilishda muhim o‘rin tutadi.

– Ogahiy tarixiy asarlaridagi antonimlar tizimining mavzuiy guruhlarini hozirgi o‘zbek adabiy tilidan deyarli farq qilmaydi;

– Antonimik juftliklar o‘rtasidagi asosiy farq tushunchalar o‘rtasida emas, balki ana shu tushunchalarni ifodalovchi lug‘aviy birliklardadir;

– Ogahiy tarixiy asarlarida sinonimiyada bo‘lgani kabi fe‘l antonimiyasida orginalligi, badiiy bo‘yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Халқ сўзи. – Тошкент, 1997 йил. – 21 октябрь.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўз ФАН, 1961. – 346.
4. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 167 б.
5. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. –Тошкент: Академия, 2008. – 192 б.
6. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. –Тошкент:Чўлпон.1992 й. – 192 б.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. I-IV жилдлар. – Тошкент: Фан, 1983-1985. I жилд, 1983. – 656 б.; II жилд, 1983 – 643 б.; III жилд, 1984. – 624 б.; IV жилд, 1985. – 636 б.
8. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий танқидий матн. Тузувчи: С.Ғаниева. – Тошкент, 1961.
9. Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.; 11-том. – Тошкент: Фан. 1996. 640 б.; 3-том. – Тошкент, 1989. – 616 б.; 7-том. – Тошкент, 1991. – 392 б.; 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 541 б.; 12-том. Тошкент: Фан, 1996. – 325 б.
10. Алишер Навоий. Танланган асарлар. 3- том / Нашрга тайёрловчилар Ойбек ва П.Шамсиев. –Тошкент: 1948. – 246 с.
11. Амир Темур. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. – Тошкент, 1996.
12. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – 944 с.

13. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Тюркология. – 1989. – №.1. – С.63-71.
14. Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука. 1985. – 208 с.
15. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 160 б.
16. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Фан, 1991. – 152 б.
17. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.;
18. Дадабаев Х. Общественно-политический и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
19. Дадабоев Ҳ. Тарихий харбий терминлар луғати. –Тошкент: Университет, 2003.
20. Дадабоев Ҳ. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. –Б. 21-24.
21. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
22. Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдатут-таворих” асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огаҳий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.
23. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. –104 б.
24. Иброҳимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Биринчи том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – 456 б.
25. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари учун луғат. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
26. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование документов с введением, с предисловием ак. И.Ю.Крачковского. –Л., 1940.

27. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. (XVI середина XIX в.) – М., 1958; Его же. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940.
28. Исмоил Мирпанжий. Асирликдаги хотиралар / Форс тилидан Н.Ҳасанов таржимаси. – Урганч: Хоразм, 1997. – 64 б.
29. Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача луғат. – Андижон: 2008.
30. Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида “ов” мазмун майдони // Илм сарчашмалари, 2005, 4-сон. – Б. 78-82..
31. Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2005. - №1. – Б.52–55.
32. Комилов Н. Бу қадимий санъат... – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
33. Кошғарий М. Девону луғотит турк. I том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1960. – 499 б.
34. Кошғарий М. Девону луғотит турк. II том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1961. – 427 б.
35. Кошғарий М. Девону луғотит турк. III том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1963. – 466 б.
36. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
37. Матғозиев А. XIX аср ёзма ёдгорликларида қадимги туркий тилга хос элементлар// Ўзбек тили ва адабиёти, – 1976. – №4. – Б. 62-63.
38. Матғозиев А. Ҳарбий терминлар тарихига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1974. – №1. – Б. 47-50.
- 39.
40. Миртожиев М. Полисемиядан омонимларнинг келиб чиқиши ҳақида // Тилшунослик масалалари. –Тошкент, 1960.
41. Мунис ва Огаҳий. Фирдавсу-л-икбол. Ю. Брегель нашри. Лейдин. 1988.
42. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении.– М.: Наука, 1975. 360 с.

- 43.Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – 335 б.
- 44.Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: 1972. – 190 б.
45. Огаҳий абадияти. Ал-Хоразмий номидаги Урганч давлат университети, Хоразм Маъмун академияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 152 б.
- 46.Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Танланган асарлар. – Тошкент: Мерос, 1999.
- 47.Огаҳий. Ой кетди, офтоб келди. Форсийдан М.Абдулҳаким таржимаси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси нашриёти, 2002. – 42 б.
- 48.Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин / Нашрга тайёрловчи Хуршид. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1960. – 648 б.
- 49.Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – 782 с.
- 50.Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – 864 с.
- 51.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Биринчи том. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
- 52.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
- 53.Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Биринчи қисм –Тошкент: Университет, 1997.
- 54.Рустамий М. Луғавий шаклдошлик ва унинг турларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1994. - №1-2. – Б. 28–34.
- 55.Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 155 б.
- 56.Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966. – 436 с.

57. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974. – 768 с.
58. Талабов Э. Араб тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 406 б.
59. Таржумон – XIV аср обидаси. Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980. – 127 б.
60. Турсунов У., Раджабов Н. Из истории омонимов в узбекском литературном языке // Тюркская лексика и лексикография. – М.: Наука, 1971. – С. 37-46.
61. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. Тошкент: 1968. – Б.109-120.
62. Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Том I. – Ташкент: Фан, 1966. – 651 с.
63. Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Том II. – Ташкент: Фан, 1971. – 780 с.
64. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 176 б.
65. Чинги Мухаммед Якуб. Келурнаме. (Староузбекско-таджикско-персидский словарь XVII в.) Введение, транскрипция и перевод текста, глоссарий, лексико-грамматический очерк, грамматический указатель А.Ибрагимовой. – Ташкент: Фан 1982. – 146 с.;
66. Чориев З. Тарих атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
67. Щербак А.М. К вопросу о происхождении глагола в тюркских языках // Вопросы языкознания. – 1975. – №5. – 18-29.
68. Щербак А.М. Тюрко-монгольские языковые связи (К проблеме взаимодействия и смешении языков) // Вопросы языкознания. – 1986. – №4. – С. 47-59.
69. Ўз Р Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат № 2, Иш №221, В: 1 олд томони; 223, В. 1.; Иш №223, В. 2,3. ; Иш №266, В. 2.; Иш №266, В. 3,4,5,6.; Иш №559, В. 3.

70. Ўзбек тили лексикасида арабча сўзлар // Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикография. Фонетика. Графика ва Орфография. Морфология. Фаҳри Камол таҳрири остида. – Тошкент: ЎзФАН, 1957. –Б.99-101.
71. Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996.
72. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2006. – 680 б.
73. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том.– Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2006. – 688 б.
74. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2008. – 602 б.
75. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 5-том. 2008. – 592 б.
76. Ғанихўжаев Ф. “Таъвиз-ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фанлари доктори...дис. автореф. –Тошкент, 1998.
77. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарлари тавсифи. –Тошкент: Фан, 1986. – 125 б.
78. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – 324 б.
79. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
80. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Тошкент, 2007. – 168 б.
81. Ҳофиз Убаҳи. Тухфат-ул-аҳбоб. Ҳозиркунандаи нашр Ҳ.Рауфзода. – Душанбе: Ирфон, 1992.– 195 с.
82. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. –Тошкент, 1990. – 254 б.
83. Doerfer G. Türkische und mongolische elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer Neupersischer geschichtsquellen, vor allem mongolen und Timuridenzeit. Wiesbaden, 1963. Bd. 1.
84. Furqon. www. islom. uz.

85. Yeyin Abdullah. Yeni Lügat. –Istanbul: Xizmet Vakfi Yayinlari, 1992. –800 s.
86. اوستا. مترجم جليل دوستخواه. تهران. مرواريد. ۱۹۹۱. ۱۱۲۶. ص.
87. ابو عبدالله محمد احمد بن يوسف خوارزمي. مفاتيح العلوم. الناشر كمال الدين الادهمي. مصر. ۱۳۴۹. ص. ۷۷.
88. Қўлёзма. Шахсий кутубхонамизда. – 132 б. بدان.
89. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. جامع الوقعات سلطاني.
90. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. 5364 / II. 246^a-364^a رياض الدولة
варақлар.
91. Al-rams. www. mehrahgam. com. درج ۳. بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه .
92. دکتر رضا زاده شفق «فرهنگ شاهنامه» از انتشارات مجمع ناشر کتاب. شماره ۷. ابن
سینا. ۱۳۷۰. ص. ۴۷.
93. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. 5364// II. 246^a-364^a رياض الدولة
варақлар.
94. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. در چهار جلد ۲۴۲۹ ص.
95. کزازی میرجلال الدین. نامه باستان. جلد ۱. تهران. سمت. ۱۳۷۹. ص. ۶۹۲.
96. مازندرانی حسین شهید فرهنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نشاپور ۱۳۸۸. ۴۸۶ ص.
97. معین محمد . فرهنگ فارسی. جلد 1. تهران. امیر کبیر. 1375 ه ق در شش جلد ۴۲۴۰ ص.
98. منتخب اللغة . لکهنو. ۱۸۸۶ ص ۷۸۶.
99. نگاهی به اشعار فارسی آگهی خوارزمی . مجلة ایران شناخت . نامه انجمن ایران شناسان
کشورهای مشترک المنافع و قفقاز. شماره نهم . 1379 تهران.
100. قاموس المحيط www.dorar.net.